



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda На посты

2024-yil  
17-oktabr  
payshanba

№ 42 (4684)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

## QUYOSH SARI TALPINIB



3

## ИШОНЧ – КАТТА КУЧ



8

## EGRI BUTOQNI NIHOLIDA TOBINI OL



9

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING «O'NG QO'LI»



**P**oytaxtimizning Yangiayot tumani mahallalari kundan-kunga chiroy ochib bormoqda. Xususan, «Yangi umid» mahallasiga kelgan har bir insonning bahri dili ochiladi. Zamonaviy ko'p qavatli uylar va turli bino-inshootlar qad ko'targan. Ayniqsa, mahalla fuqarolari muntazam sport bilan shug'ullanishi uchun mahobatli sport majmuasi barpo etilgani quvonarli holat.

Jamoliddin Ahmadjonov mazkur mahalla osoyishtaligiga mas'ul bo'lgan profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi. U mahalla fuqarolar yig'ini raisi Habibullo Tillayev, profilaktika inspektori, kapitan Sunnat To'rayev bilan hamkorlikda hudud obodligi, tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

13

YANGI O'ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI

# NURAFSHON NURLI MANZILGA AYLANMOQDA

**Nurafshon shahri 2017-yilgacha To'ytepa nomi bilan atalgan. Aynan o'sha yildan Toshkent viloyatining ma'muriy markazi maqomini olgan. Hudud poytaxtdan 37 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, bu yerda 54 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. Nurafshon so'zi «nur taratuvchi», «nur sochuvchi» ma'nolarini anglatadi.**



## «Yashil» mahallalar ko'payadi

Shaharda 22 ta mahalla mavjud. Shahar IIB JXX HPB boshlig'i, kapitan Sherzod Dadamatovning ta'kidlashicha, ulardan 3 tasi «qizil» toifada. Ushbu mahallalarni jinoyatdan xoli hududlarga aylantirish uchun maqsadli rejalar ishlab chiqilgan. E'tiborli jihati, joriy yilning 9 oyi davomida o'tgan yilning mos davriga nisbatan muqaddam sudlanganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, yengil tan jarohati yetkazish, avtomobil olib qochish singari holatlar sezilarli darajada kamaygan.

Katta leytenant G'ayrat Ermatov yosh bo'lishiga qaramay, profilaktika inspektori sifatida shahardagi mahallalarda samarali xizmat qildi. Shuni inobatga olgan rahbariyat uni «qizil» toifadagi «Dehqonobod» mahallasiga profilaktika inspektori etib tayinladi.

Yaqindagina sariq toifaga o'tgan mahallada 3 ming nafardan ortiq fuqarolar yashaydi. Ular asosan tadbirkorlik bilan mashg'ul. Zimmasiga mahallani «yashil» toifaga olib chiqish vazifasi yuklatilgan G'ayrat Ermatov mahalla fuqarolar yig'ini mas'ullari bilan uyushqoqlikda ishlab, eng og'riqli, eng muhim masalalarni hal etish choralari ko'rmog'ida. Demak, tez orada shaharda «yashil» mahallalar ko'payishiga shubha yo'q.



## Targ'ibot va tashviqot

Yo'llarda bolalarni asrash, yo'l harakati xavfsizligi qoidalari bilan muntazam tanishtirib borish nihoyatda muhim. Nurafshonda ham bu masalaga jiddiy e'tibor qaralib, hududda joylashgan 13 ta maktabga YPX inspektorlari birlashtirilgan.

Safdor Zarif Bektoshevga shahardagi 32-sonli umumta'lim maktabi, shuningdek, «Navro'z» va «Qumariq» mahallalarida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, yo'l harakati bilan bog'liq muammolarni o'rganish va kamchiliklarni bartaraf etish borasida rahbariyatga takliflar berish vazifasi topshirilgan. U o'ziga birlashtirilgan maktab o'quvchilari bilan yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha muntazam amaliy mashg'ulotlar olib boradi.

## Yosh xodimga qanot

Shahar IIB JXX Probatsiya guruhi inspektori, leytenant Abdurasul Kaldarbekov IIV Akademiya-sini tamomlab, endigina xizmatni boshlagan yosh, umidli xodimlardan biri. Unga sohada katta xizmat tajribasiga ega Probatsiya guruhi katta inspektori, mayor Rasuljon Abdullayev



murabbiy sifatida birlashtirilgan. Ustoz o'z shogirdiga sohaviy bilim va ko'nikmalarni o'rgatishdan tashqari, xizmat intizomi va qonuniylikka qat'iy rioya etish, fuqarolar bilan hamisha xushmuomala bo'lish lozimligini uqtirib keladi.

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash kerakki, joriy yilda Probatsiya guruhi tomonidan ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni o'tashdan bo'yin tovlab yurgan 21 nafar shaxsning jazolari og'irrog'iga almashtirilgan. 8 marta mehnat yarmarkasi tashkil etilib, 62 nafar shaxs ishga joylashtirilgan. O'nga yaqin sayyor sud majlislarida esa 95 nafar shaxs shartli ravishda probatsiya nazoratidan chiqarilgan.

## «Odamlarga ko'proq nafim tegsa...»

Ichki ishlar organlarida uzoq yillar xizmat qilib, pensiyaga chiqqan iste'fodagi kapitan Ravshan Kalonov 2015-yildan buyon Nurafshon shahridagi Bobur nomidagi MFYda mahalla raisi sifatida ishlab kelmoqda.

– Xizmat faoliyatim Qo'riqlash bo'limida, oddiy safdorlikdan boshlangan.

So'ngra bir necha sohaviy xizmatlarda faoliyat ko'rsatib, 10 yil oldin pensiyaga chiqdim. Biz faxriylar uchun iste'fo degan so'z begona. Mahallani, uning ahlini yaxshi ko'raman. Odamlarga ko'proq nafim tegishini xohlayman, mana hozir shu yo'ldaman, – deydi iste'fodagi kapitan R. Kalonov.

Ravshan aka turmush o'rtog'i Muqaddas Kalonova bilan uch qiz va bir o'g'lini tarbiyalab, voyaga yetkazgan. O'g'li Jasurbek hozir oliygohda moliya-iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olmoqda. Mahalla raisi 2 mingdan ortiq aholi yashaydigan mahalla dardi-tashvishi bilan yashamoqda.

## Xolis va qonuniy

Kuch – adolatli, adolat esa kuchli bo'lmog'i lozim. Bunda, albatta, tergov ishlarini har tomonlama chuqur, xolis va qonuniy tarzda olib borish talab etiladi. Shahar IIB huzuridagi Tergov bo'linmasida xizmat qilayotgan xodimlar aynan mana shu tamoyilga tayanadi.

Bo'linma katta tergovchisi, kapitan Sunnatillo Rasulov 2019-yildan buyon tergov yo'nalishida faoliyat yuritib kelmoqda. Asosiy ishidan tashqari, detektiv janrdagi filmlar tomosha qilishni odat qilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi vaqtda Tergov bo'linmasida og'ir jinoyatlar kamaygan. Lekin o'g'rilik, firibgarlik bilan bog'liq holatlar bo'yicha jinoiy ishlar ko'proq uchramoqda.

**Sahifa materiallarini o'z muxbirlarimiz Abror POYONOV va Abu KENJAYEV tayyorladi.**



YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

Maqsadlari ulkan, harakatlari dadil yoshlarni ko'rganda beixtiyor ko'zlarimizda havas uyg'onadi. Ularning shaht-u shijoati ertangi yorug' istiqbolidan so'zlab turadi, go'yo. IIV Akademiyasi 2-bosqich kursanti, Jaloliddin Manguberdi nomidagi stipendiya sohibi G'olibjon Qurbonaliyev ham o'z oldiga katta maqsadlar qo'ygan iqtidorli yoshlarimizdan biridir.

– Barcha sohalar taraqqiy etib borayotgan ayni zamonda o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'laman, degan kishi bugun ko'proq o'qib, o'rganishi, o'z ustida muntazam ishlashi kerak, – deydi G'olibjon Qurbonaliyev. – Ayniqsa, biz yoshlar yurtimizda ta'lim olishimiz uchun yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz zarur. Bu borada IIV Akademiyasida ham barcha sharoitlar yaratilgan. Men huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishida o'qiyman. Ustozlarimdan tizimga oid bilimlarni mukammal o'zlashtirishga harakat qilaman.

Haqiqatdan ham, lavhamiz qahramoni harakatchan yigitlardan. U dastlab IIV Qashqadaryo akademiyasida a'lo baholarga o'qidi. Keyin yuqori ball bilan IIV Akademiyasiga o'qishga kirib, tezda ushbu ta'lim muassasasining ham zukko kursantlaridan biriga aylandi. Ta'lim dargohida «Zakovat» intellektual o'yini bilimdonlari safiga qo'shildi. Ingliz tili bo'yicha IELTS sertifikatini ham bor. Joriy yilda «Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences» xalqaro ilmiy jurnalida chop etilgan «Gender equality: Women are active on all fronts» (Gender tenglik: Ayollar har jabhada faol) mualliflik maqolasi uchun diplom hamda sertifikat bilan taqdirlandi.

– O'g'lim o'shanda o'n to'rt yoshlarda edi, birdan «Dada, men ham sizdek xodim bo'laman» deb

qoldi, – deydi Nishon tumani IIB Navbatchilik qismi katta inspektori, podpolkovnik Alisher Astanaqulov. – Avvaliga undagi qiziqish o'tkinchi havas bo'lsa kerak, deb o'yladim. Yo'q, niyati jiddiy ekan. IIV Akademiyasida a'lo baholarga o'qib, o'z so'zida sobit turganidan xursandman.

G'olibjon, bugun ismi jismiga mos, o'qishda g'olibona odimlamoqda. Biroq uning oldida hali

bosib o'tadigan dovonlar ham anchagina.

– Men axborot texnologiyalariga ham juda qiziqaman, – deydi u. – Kelgusida o'qishni magistratura bosqichida davom ettirib, kiberjinoatchilik bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqchiman. Bunda ustozlarimdan o'rganadigan bilimlarim ko'p, albatta. Fursatdan foydalanib, ilmiy maqolalar tayyorlashda menga o'z maslahatlarini ayamay, yo'l-

yo'riq ko'rsatib kelayotgan ta'lim muassasamizning kriminologiya kafedrasida boshlig'i, podpolkovnik Bekzod Umrzoqovga minnatdorigimni bildiraman.

Ota izidan ibrat, ustoz so'zidan ilm-u ziyo olib, kamolot pillapoyalarida salohiyat quyoshi sari talpinayotgan G'olibjondan umidimiz katta.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

QUYOSH SARI  
TALPINIB



24-betdagi savol javobi: tovush

INSON QADRI UCHUN

SEKTORDA ISH QIZG'IN

Chiroqchi tumani 3-sektorida aholi turmush farovonligini yuksaltirish borasida mavjud muammolarni tizimli ravishda o'rganish va hal etishga ahamiyat berilmoqda. Sektor rahbarining joylarda o'tkazayotgan sayyor qabullarida ham ko'plab muammolarga yechim topilmoqda.

Bugungi kunda 3-sektordagi 14 ta mahallada 58 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Joriy yilda o'rganishlar asosida 1053 ta ehtiyojmand

oila «Temir daftar»ga kiritildi. Ularga subsidiya, kredit va o'zini o'zi band qilishi uchun turli ko'rinishdagi yordamlar ko'rsatildi. «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari»dagi fuqarolarga ham zarur yordam ko'rsatildi. Ularning ayrimlari ish bilan ta'minlandi, ayrimlariga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratildi, aksariyat qismiga dehqonchilik qilish uchun yer maydonlari ajratib berildi. Qolaversa, yoshlarning safarbarlik chaqiruv rezervi va haydovchilik kurslarida o'qishi bo'yicha to'lovlari to'lab berildi.

Joriy yilning o'tgan davrida sektor rahbari, tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Shuhrat Iskandarov tomonidan o'tkazilgan yoshlar bilan uchrashuvlarda 90 nafar yigit-qizning murojaati ijobiy hal qilindi, 20 nafariga huquqiy tushunchalar berildi.

5 ta murojaat o'rganish uchun vaqt va mablag' talab etilgani sababli ijroga qaratilib, nazoratga olindi.

O'tgan davrda tumandagi «Chimqo'rg'on», «Paxtaobod», «Chiljuvut», «Istiqlol», «Yangiqishloq» va «Zarbdor» mahallalarida hashar yo'li bilan 33 kilometrlik ichki yo'llarga shag'al, 3 kilometrlik ichki yo'llarga asfalt yotqizilgani ham e'tiborga molikdir.

Joriy yilda homiylik asosida «Temir daftar»ga kiritilgan bir fuqaroga 5 xonali turarjoy qurib berilgan bo'lsa, 4 nafar fuqaroning uy-joyi ta'mirlandi. Ayni paytda yana bir nafar fuqaroga 4 xonali uy qurish ishlari homiylik va hashar yo'li bilan olib borilmoqda.

**Abdig'ani XURRAMOV,**  
kapitan.  
Qashqadaryo viloyati.



■ г. Ташкент

## СЧАСТЬЕ БЫТЬ ПОЛЕЗНЫМ ЛЮДЯМ

Подполковник Улугбек Шайханов связал свою судьбу с делом обеспечения мира и спокойствия в стране. В 1993 году начал службу в должности инспектора по делам несовершеннолетних ОВД Юнусабадского района. Улугбеком была проделана последовательная практическая работа по предотвращению преступности и правонарушений, оказанию поддержки и становлению подростков и молодежи на правильный жизненный путь.

Добросовестное отношение к своим обязанностям, выполнение поручений строго в рамках закона не остались незамеченными руководством. Он постепенно продвигался вверх по служебной лестнице. В настоящее время подполковник Улугбек Шайханов занимает должность главного инспектора службы пробации ГУВД города Ташкента.

– Прилагаются большие усилия для совершенствования системы исполнения наказаний, обеспечения защиты прав, свобод и законных интересов осужденных, предотвращения повторных преступлений, адаптации осужденных к социальной жизни. Для этого внедряются прозрачные и эффективные правовые механизмы, направленные



на моральное воспитание и приобщение к труду, – говорит он. – Условно освобожденным предоставляется материальная

помощь, оказывается поддержка в восстановлении здоровья, решении бытовых, правовых и психологических вопросов, содействие в трудоустройстве. В целях обеспечения занятости создаются возможности для прохождения учебных курсов и обретения профессиональных навыков. Подобные услуги также предоставляются тем, кто был приговорен к исправительным работам. Наша цель – превратить оступившихся граждан в здоровых и активных членов общества.

За время своей службы подполковник У. Шайханов воспитал множество учеников. Опыт и профессионализм У. Шайханова – пример для каждого молодого сотрудника.

Соб. корр.

★ Преданные своему делу

## ЦЕЛЕНАПРАВЛЕННАЯ ПОМОЩЬ

Когда добрались до махалли Куйитош Сардобинского района близился полдень. Пришлось ждать инспектора профилактики капитана Обида Шайзокова. Оказалось, что он вместе с председателем махалли обходит дома жителей, изучает проблемы населения. Одна семья попала в затруднительное положение. У мужа не было работы, а жена вынуждено занималась поденной работой с непостоянным заработком. Ячейка общества с тремя несовершеннолетними детьми еле сводила концы с концами. Инспектору удалось трудоустроить неупутевого главу семейства в хозяйство по благоустройству территории.

– В лице инспектора профилактики имеем надежного единомышленника, готового помочь в решении наших проблем, – говорит председатель махалли Шухрат Абдуалимов. – Многим импонируют его профессиональные и человеческие качества.

Почти два года махалля числится в категории благополучных. Кривая преступности неуклонно снижается. В текущем году не зафиксировано совершение преступлений несовершеннолетними и женщинами. За этим стоит большая работа.

В сентябре удалось предотвратить развод трех семей. Изучив причины неурядиц, приняли действенные меры. Союз Акбара и Латофат был одним из таких. Разлад в семье был вызван разногласиями между невесткой и сестрой мужа, проживающими в одном доме. В результате Латофат забрала двоих детей и вернулась к своему отцу. Чтобы воссоединить семью спонсоры помогли с оплатой начального взноса для приобретения жилья по ипотеке. Акбар и



На снимке: начальник ОПП СОБ ОВД Сардобинского района майор Санжар Садиков (слева), капитан Обид Шайзоков (в центре), Шухрат Абдуалимов (справа).

Латофат переехали в один из новопостроенных домов. В старом дворе остались другие члены семьи.

– Мы хорошо понимаем, что снижение уровня преступности связано с оздоровлением обстановки в махалле, занятостью населения и уменьшением социальных проблем, – го-

ворит инспектор профилактики ОПП Сардобинского РОВД капитан Обид Шайзоков. – Поэтому работаем с активистами махалли над улучшением показателей в этих направлениях.

В словах инспектора есть доля правды. Актив целенаправленно помогает решению актуальных во-

просов граждан. Только в сентябре две нуждающиеся семьи получили субсидии на сумму 20 миллионов сумов. Первая из них потеряла кормильца. В семье осталось четверо несовершеннолетних детей. Вторая – распалась, и мать с одним ребенком вернулась в родительский дом.

На основе представленных руководителем сектора документов им были выделены необходимые оборудование и инвентарь для налаживания кондитерского производства. Их также закрепили за опытными предпринимателями. Был взят под контроль вопрос снабжения электроэнергией и газом. Вначале новоиспеченным кондитерам пришлось нелегко. Однако спустя время предпринимательская деятельность стала приносить плоды. Произведенная выпечка реализовывалась в ближайших магазинах.

Однако невозможно достичь хороших результатов, не взяв под контроль людей с предрасположенностью к преступности. Капитан Обид Шайзоков постоянно работает с четырьмя лицами в махалле, которые страдают хроническим алкоголизмом и привыкли к беспорядочному образу жизни. Кроме того, инспектор индивидуально работает с пятью гражданами, находящимися под надзором службы пробации. Следит за тем, чтобы они соблюдали установленные меры ограничения.

Говоря кратко, деятельность капитана Обида Шайзокова по обеспечению общественного спокойствия и поддержанию общественного порядка заслужила признание многих махаллинцев.

Абдурахмон  
МУСТАФОКУЛОВ,  
соб. корр.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KUNI OLDIDAN

## BAXTIMIZGA OMON BO'LING!

Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidan dadil borayotgan mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarida ulkan tarixiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Biz tanlagan yo'l xalqimiz ko'zlagan ezgu maqsadlarga erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, inson qadri va qonun uctuvorligini ta'minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar.

Ana shunday yuksak maqsadlar sari odimlab borayotgan jamiyatimiz hayotini yanada demokratlashtirish, xalq osoyishtaligi va farovonligiga erishishda boshqa sohalar vakillari bilan bir qatorda ichki ishlar organlari xodimlarining ham faoliyati o'ta muhim ekanini unutmashimiz lozim. Afsuski, ba'zi bir yurtdoshlarimiz yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida kechani kecha, kunduzni kunduz demay fidoyilarcha xizmat qilayotgan bu insonlarning qadriga yetmayotgandek.

O'zimiz uchun bir o'ylab ko'raylik. Ayrimlarimiz oilamizdagi majarodan qochishga, uzoqroq yurishga, bir so'z bilan aytganda befarqlik, loqaydlik qilamiz. Qo'ni qo'shnilarining o'zaro kelishmovchiligiga-ku umuman aralashishini istamaymiz. Mahalladoshlarimiz bu borada gap ochsa, «Qo'y, shu mashmashaga aralashmaginim ma'qul», deb o'zimizni muammodan olib qochamiz. Shunday holatlar bo'ladiki, xonadonimizdagi muammolarni o'zaro hal qila olmagach, oxir oqibat ichki ishlar organlari xodimlariga murojaat qilamiz. Shunda ular jonimizga oro kiradi.

Yurtimizda so'nggi yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirildi. Xususan, «mahallabay», «xonadonbay» tamoyillari asosida ishlash orqali har bir oiladagi muhit, muammolar o'rganilyapti. Bu ishlarni bajarayotgan mahalla yettiligi orasida profilaktika inspektorlarining alohida o'rni bor. Aynan ichki ishlar organlari xodimlarining hamkor tashkilotlar vakillari bilan birgalikdagi sa'y harakatlari tufayli bugungi kunda mamlakatimizda osoyishtalik hukm surmoqda, ko'cha ko'yda o'zimizni bexavotir his qilamiz.

Shu o'rinda yaqinda bo'lgan voqeani eslashni lozim topdim. Ertalab ishga ketish uchun ko'chaga chiqsam, qo'shnim jilmayib turibdi. Salomlashib:

– Ha, nima gap? Ja xursandsiz? – deb so'radim.

Shunda qo'shnim buning boisini gapira ketdi:

– Yarim soatdan beri uyda mashinamning kalitini qidiramiz. Katta-yu kichik hamma ovora. Oxiri ayolim: «Xo'jayin, kalit mashina-

ning ichida qolmaganmi, bir qarab ko'ring», – dedi. Pastga tushib qarasam, haqiqatan kalit mashinada turibdi-da. Buning ustiga, mashinamning oynalari ham ochiq qolgan ekan. Kechasi bilan shunday qolgan. Buni qarang, hech kim tegmabdi.

Men qo'shnimga:

– Hamma ko'cha deyarli kamera, g'araz niyatli, qo'li egri kimsalar mabodo jinoyat sodir etsa, qo'lga tushishini yaxshi biladi, – dedim.

Profilaktika va PPX inspektorlari jinoyatchilikni barvaqt oldini olishda oldingi safda turishibdi. Ular kerak bo'lsa o'z burchini bajarish – siz-u bizning oromimizni qo'riqlash yo'lida aziz jonini ham qurbon qilishyapti.

Mayli, jinoyatchilikni qo'ya turaylik. Azim Kentimizning markaziy ko'chalaridan biridagi svetofor o'zina muddatga ishlamay qolishini tasavvur qilib ko'raylik. Birpasda

shunaqangi tirbandlik yuzaga keladiki, uni YPX xodimining aralashvisiz bartaraf etib bo'lmaydi. Yoki qahraton qishda ham, jazirama yozda ham ko'cha ko'yda, jamoat joylarida fidoyilarcha xizmat o'taydigan PPX xodimlarini, zarur bo'lsa yarim kechasi ham biror xonadondagi janjalni tinchitish uchun oromidan kechadigan profilaktika inspektorini ko'z oldimizga keltiraylik.

Fursatdan foydalanib, ichki ishlar organlari xodimlarini yaqinlashib kelayotgan kasb bayrami bilan tabriklayman. Ularga qarata: «Umringizdan baraka toping! El-yurt osoyishtaligi yo'lida chekayotgan zaxmatingiz, mashqqatingiz o'zingizga mukofot bo'lib qaytsin! Oilangizning baxtiga sog' omon bo'ling!» – deyman.

**Shavkat TO'RAYEV,**  
falsafa fanlari doktori (DCs).



SOHA FIDOYILARI

Uychi tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi tergovchisi, kapitan Islomjon Rahimov yaqinda ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan «Eng yaxshi tergovchi» ko'rik-tanloving viloyat bosqichida faxrli 3-o'rinni egalladi. U izlanuvchan va tirishqoqligi bois zimmasidagi mas'uliyatli vazifalarni bajarishda qiyinchilik sezmaydi, har qanday muammoga yechim topa biladi. Mahoratining siri ham shunda.

## MAHORAT SIRI



Joriy yilning o'tgan 9 oyi davomida I. Rahimov tomonidan tergov qilingan 88 ta jinoyat ishi bo'yicha 95 nafar shaxsga nisbatan ayblov e'lon qilinib, o'rnatilgan tartibda sudga yuborilgan. Mazkur jinoyat ishlari doirasida fuqarolarga yetkazilgan 700 mln. so'mdan ortiq mulkiy zarar undirilgan.

Uychi tumanida yashovchi B.P. bilan ahd-u paymon qilib yurgan qizi M.S. o'rtasida kelishmovchilik chiqadi. Yigit qizni oliy o'quv yurtiga o'qishga kirgandan so'ng, rashk qilib, ta'qib qila boshlagan. Uning xurmacha qiliqlari joniga tekkach, qiz yigitdan uzoqlashishni boshlagan. Shundan keyin nomardlik yo'lga o'tgan yigit, qizga tahdid qilib, uning surati va videolarini internet tarmog'ida tarqatib yuborish bilan qo'rqitadi. Bu ishni qilmaslik evaziga esa 10 000 AQSH dollari talab qiladi.

Shundan so'ng qiz tuman IIBga murojaat qiladi. Tezkor tadbir o'tkazilib, yigit talab qilgan pul uning yaqin o'rtog'i M.A.ga berilayotgan vaqtda ashyoviy dalil bilan qo'lga olinadi. Buni qarangi, B.P. o'z do'stini pullarni olishda ishtirok etishga ko'ndirib, uniyam jinoiy qilmishiga sherik qilgan. Kapitan Islomjon Rahimov mazkur murojaat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atib, aybdor shaxslarga nisbatan jazoning muqarrarligi ta'minlandi.

– Ichki ishlar organlari xodimlarining jamiyatda huquq-tartibotni ta'minlashdagi hissasi beqiyos. Zimmamizdagi vazifalarni bajarishda doim hushyor, mas'uliyatli bo'lishimiz shart, – deydi kapitan I.Rahimov.

Islomjon oilada ham baxt topgan yigit, turmush o'rtog'i Gulnoza bilan Mehrinozbeqim ismli qizaloqlarini tarbiyalab kelishmoqda.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

## Кинологическая служба

**В УООП СОБ Навоийского УВД в целях повышения знаний и профессиональных навыков кинологов, улучшения процесса подготовки служебных собак недавно проведен областной этап соревнований по многоборью. В нем приняли участие сотрудники питомника кинологического подразделения.**

Участники вместе со своими четвероногими напарниками выполняли задания такие, как преодоление препятствий, бег на дистанцию и стрельба.

По итогам выступлений **третье место** занял рядовой Бахром Бешимов, **2-е место** завоевал

младший сержант Умид Нарзиев. **Победителем** областного этапа стал младший сержант Ойбек Жураев, выступавший вместе с четвероногим питомцем по кличке Томик. Им предстоит принять участие в республиканском финале многоборья.



– От кинологов многое зависит в плане раскрытия преступлений по горячим следам. Чтобы научить служебную собаку выполнять приказы необходимо заниматься не менее трех месяцев. На соревнованиях была продемонстрирована

высокая выучка. Надеюсь, что и на республиканском этапе добьемся хороших результатов, – говорит старший специалист-кинолог кинологической службы старший сержант Акмал Кобиллов.

**Махлиё ХОЛОВА,**  
соб. корр.



## Молодежь – наше будущее

# ИЗ ПОКОЛЕНИЯ В ПОКОЛЕНИЕ

**Если профессию в семье по-настоящему ценят, ее перенимают из поколения в поколение, превращая в трудовую династию. Пример тому молодой сотрудник, недавно окончивший Академию МВД, но уже успевший расследовать более 40 уголовных дел.**

Лейтенант Бахтиёр Кушатов родом из Самарканда. Еще в школьные годы он решил, что пойдет по стопам отца, полковника Зохида Мамадалиева, ныне занимающего должность начальника Пастдаргомского РОВД.

Мой отец – пример для подражания, он был и остается для меня примером. Когда настал момент выбора профессии, то у меня даже не было ни малейшего желания идти по иному пути, – говорит Бахтиёр. – Когда затрудняюсь с расследованием или возникают вопросы,

всегда спрашиваю совета у него.

Лейтенант рассказал, что на территории района участились случаи мошенничества. Особенно уязвимы пенсионеры, однако на уловки злоумышленников попадают и юридически грамотные граждане.

По мнению Б. Кушатова необходимо быть хорошим психологом, важно уметь иногда поставить себя на место преступника, научиться думать, как он. В каждом из дел существуют свои трудности, но каждый старается и справляется с возложенными задачами.

Беседуя о ценностях в жизни, лейтенант поделился сокровенным.

– Семья – главная поддержка в жизни любого человека, тем более, правоохранителя. Я вырос в семье сотрудника органов внутренних дел, где мама всегда помогала отцу своим отношением, присутствием, добротой и улыбкой. Пока я не женат, но надеюсь, что у меня в семье все будет так же, – с улыбкой говорит он.

**Замира БАЛТАЕВА,**  
соб. корр.

Самаркандская область



# XALQQA XIZMAT QILISH – SHARAFLI BURCH

(25-oktabr – Ichki ishlar organlari xodimlari kuni)

**Azaldan milliy qadriyatlarimiz, muqaddas dinimiz ahkomlarida xalqqa xizmat qilish, odamlarga yaxshilik ulashish, ehtiyojmandlarga yordam qo'lini cho'zish doimo ulug'langan. Insonlarga nafi tekkan kishi nafaqat el orasida hurmat-ehtirom qozonadi, balki u ko'pdan-ko'p savobga ham noil bo'ladi, deya ta'kidlangan.**

G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy ham o'zining deyarli barcha asarlarida xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini ilgari surgan. Ulug' mutafakkir inson hayotining mohiyatini uning jamiyatga foydali kasb bilan shug'ullanishi, xalqqa nafi tegishi, odamlarning og'irini yengil qilishida, deb biladi. Uning quyidagi misralariga e'tibor qiling-a:

**Naf'ing agar xalqqa  
beshak durur,  
Balki, bu naf' o'zingga  
ko'prak durur.**

Ya'ni, shoir insonning xalqqa qancha foydasi tegsa, bundan uning o'ziga ham yanada ko'proq foyda tegishini bayon etadi. Aksincha, xalq g'amini o'z g'ami deb bilmaydigan odamni esa odam qatoriga qo'shmaslik kerakligini ta'kidlaydi:

**Odamiy ersang,  
demaqil odami,  
Onikim, yo'q  
xalq g'amidin g'ami.**

O'z hayotida so'z va ish birligiga amal qilgan Hazrat Navoiy umrini el-u yurtning obodligi, xalqning farovonligi yo'lida sarflab, biz avlodlariga buyuk o'rnak ko'rsatgan. U Xurosonda muhim davlat lavozimlarida xizmat qilish, turkiy tilda olamshumul asarlar yaratish barobarida el-yurt manfaatlarini yo'lida ham ko'p ishlarni amalga oshirgan. Shaxsiy mablag'i hisobidan aholi uchun masjidlar, madrasalar, hammomlar, shifoxonalar, hovuzlar, ko'priklar, rabotlar qurdirgan.

Yurtimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida keng ko'lami o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish, yurt taraqqiyoti, Vatani ravnaqiga o'zini daxldor deb his qilish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish, davlat organlarining jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'uliyatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatimiz rahbari ilgari surgan «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak», degan tamoyil har bir davlat xizmatchisi uchun muhim qoidaga aylanmoqda.

So'nggi yillarda yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar, Yangi O'z-

bekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida muayyan tajriba orttirildi. Ana shu tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O'zbekiston — 2030» strategiyasida ham xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish g'oyasi alohida o'rinni egallagan.

Ma'lumki, ichki ishlar organlari davlat ijro hokimiyatining muhim bo'g'ini, tinchlik va osoyishtalikni asrash, fuqarolarimiz huquq va erkinliklarini ta'minlashning asosiy subyektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimda xodimlarning ma'na-

yo'naltirishga, el qadri va tashvishi bilan yashashga, xizmat qilishga qaratilgan. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi osoyishtalik posbonlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta'minlash, mahallalar, aholi turarjoylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bunda ichki ishlar organlari xodimlarini «Inson qadri uchun» tamoyili asosida davlatning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligini

Shu o'rinda, ichki ishlar organlari oldiga qo'yilgan vazifalarning bekorlik ko'st bajarilishida aholining qo'lovli, mazkur tuzilmalarning fuqarolik jamiyati institutlari, keng jamoatchilik bilan o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashi nihoyatda muhimligini ta'kidlash joiz. Boshqa kasblarni aslo kamsitmagan holda aytish kerakki, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmati insondan chinakam fidoyilikni talab qiladi. Shu sababdir, ushbu soha vakillariga «sharafli kasb egalari» deya ta'rif beriladi.

Darhaqiqat, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyati favqulodda xavf-u xatarlarga, kutilmagan vaziyatlarga boy, mashaqqatli va ayni vaqtda sharafli faoliyat hisoblanadi. Ular o'z xizmat faoliyatini doimo xalq ichida, insonlar ko'z o'ngida olib boradi. Shuning uchun ularning yutug'iga ham, xato va kamchiligiga ham avvalo aholi baho beradi.

Tizimda vatanparvar, kasbiga sodiq xodimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Lekin sohaga adashib kirgan, har xil salbiy harakatlar sodir etishga moyil shaxslar ham onda-sonda uchrab turadi. Ularning qilmishi minglab halol, kecha-yu-kunduz fidoyilik bilan o'z vazifasini bajarayotgan xodimlarning xizmatiga soya solishi bor gap. Ichki ishlar organlari faoliyatining murakkabligi ham shunda, aslida.

Xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishga qasamyod qilgan xodim doimo hushyor va sergak bo'lib, har qanday xavf-u xatarga tayyor turmog'i, fuqarolar xavfsizligini, yurt tinchligini ta'minlash yo'lida kerak bo'lsa o'z huzur-halovatidan kechishi lozim. Uning xizmati sharafli ekanligining boisi ham shunda. Qachonki xodim zimmasidagi burchning mas'uliyatini chuqur anglasa, o'zini ko'p yillik shonli an'alariga ega ulkan tizimning bir vakili, inson va fuqarolarining ishonchli himoyachisi deb bilsa, xizmatdagi turli qiyinchiliklarni chidam va bardosh bilan yengib o'tishi, xalq mehri va ishonchini qozonishi mumkin bo'ladi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar samaradorligining asosiy sharti bo'lgan tinchlik-osoyishtalikni saqlash, qonun ustuvorligini ta'minlashda ichki ishlar organlari xodimlarining xizmati beqiyos. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi».

**Elbek NORMO'MINOV,**  
mayor.



viy va intellektual salohiyatini yuksaltirish ishlari «**Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!**» konseptual g'oyasi asosida tashkillashtirilayotgani ham yuqoridagi ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

Islohotlarning mantiqiy davomi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va hukumatning qator farmon va qarorlari ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga

ga erishish ustuvor vazifa sifatida e'tirof etiladi. Qolaversa, osoyishtalik posbonlarida vazifalariga halol, vijdonan, Vatani va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas'uliyat bilan yondashish, jamiyatda umume'tirof etilgan odob-axloq normalariga so'zsiz amal qilish tuyg'usini shakllantirish hamda ichki ishlar organlarida sodir etilishi mumkin bo'lgan nojo'ya xatti-harakatlar, suiiste'molchilik va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

# ИШОНЧ – КАТТА КУЧ

Бухоро шахрида йирик савдогар Қори Пўлатхўжа хонадониди дунёга келган Отаулла Хўжаев эски мактаб ва мадраса таҳсилдан сўнг «Ёш бухороликлар» нинг «Тарбия атфол» жамияти томонидан акаси Усмон Хўжаев, Абдурауф Фитрат ва бошқа тенгдошлари билан ўқишни давом эттириш мақсадида Туркияга йўл олади. Улар 1909 йилдан 1913 йилгача Истанбул шахрида таълим олишади. Отаулла Хўжаев 1913–1914 йилларда Бухоро амирлигида жадид мактаблари очиб, муаллимлик қилади. Ўша пайтда аҳоли унинг бу хатти-ҳаракатини қанчалик қўллаб-қувватлаган бўлса, бунга қарши кучлар ҳам йўқ эмасди. У 1915 йилда бир гуруҳ ана шундай мутаассиб диндорлар талаби билан 45 кунга зиндонбанд қилинади.

1917 йил апрель намоишида Отаулла Хўжаев раҳбарлигида Ҳожи Мирбобо Мирмуҳсинов, Абдурахим Юсуфзода кабилардан иборат делегация Қўшбеги хузурига юборилади. Улар мутаассиб кучларнинг талаби билан, Арқда қабул қилинмасдан, дарҳол зиндонга ташланади. Шундан кейин Садриддин Айний, Мирзо Нарзулло, Мирзо Саҳбо ва яна кўплаб жадидлар ҳам мавжуд тузум тарафдорлари томонидан қўлга олиниб қаттиқ калтакландилар. Улар муваққат ҳукумат вакилларининг ёрдами билангина зиндондан озод бўладилар.

Отаулла Хўжаев 1918 йил мартда «Колесов воқеаси» дан сўнг Самарқандда Раҳмат Рафиқ Абдуллабеков билан биргаликда «Ёш бухороликлар» га раҳбарлик қилади. Фаолияти давомида Тошкентга бориб турк асирлари Али Соъеъбек ва Усмонбек билан танишади. Сўл эсерлар партияси билан ҳамкорлик қилиб, уларнинг йиғинларида ҳам иштирок этади.

Бухоро Халқ Совет Республикаси ташкил топгач, О. Хўжаев 2000 нафарга яқин делегат иштирокидаги қурултойда ички ишлар нозири этиб тайинланади. Орадан озгина муддат

ўтгач, ҳукумат топшириғи билан Қарши вилояти инқилобий қўмитасига раҳбар этиб тайинланади. Бироқ, Отаулла Хўжаев бошлаган ишларини якунига етказ олмасдан, 1922 йилда БХСРнинг Москвадаги мухтор вакили этиб тайинланади. У зудлик билан ишга киришиб, қисқа вақтда икки

давлат ўртасида иқтисодий ва маданий алоқаларни кучайтиришга эришади. Бухородаги кўплаб истиқболли ёшларни Москва, Санкт-Петербург шаҳарларидаги олий ва ўрта махсус билим юртлирига юборади. Шунингдек, Германия ва Туркия давлатларига ўқишга жўнатиш, уларни маблағ билан таъминлашда ҳам жонбозлик кўрсатади.

У 1922 йил август–ноябрь ойларида БХСР Нозирлар Шўроси раиси вазифасини бажарувчи лавозимида фаолиятини давом эттиради. БХСР ҳукумати бошлиғи Файзулла Хўжаев Германияга сафар қилган пайтда ҳам, Москвада бўлган даврларда ҳам Бухоро ҳукуматини Отаулла Хўжаев бошқарарди. 1923 йилдан ташқи ишлар

Абдурауф Фитрат, Муинжон Аминов, Саттор Хўжаевлар Отаулла Хўжаев раҳбарлигида большевикларнинг Бухородаги сиёсатини қоралаб, чинакам миллий мустақиллик талабалари билан чиқадилар. Бухоро Республикасида большевиклар билан миллий ҳукумат ўртасидаги зиддият оқибатида бутун Бухоро қурултойида Отаулла Хўжаев, Муинжон Аминов, Абдурауф Фитрат, Саттор Хўжаевлар бўйнига тўхматдан иборат айбловлар қўйилади. Жумладан, Отаулла Хўжаевга Шарқий Бухорода мухтор вакил бўлиб турган вақтида 500 бош қўйни ўзлаштирган, шахсий уйини давлат материалларидан фойдаланиб таъмирлаган, деган асосиз айбловлар қўйилади.



нозири, Бухоро Компартияси МК котиби каби масъул лавозимларда ҳам фаолият олиб борди.

Файзулла Хўжаевнинг даволаниш учун Москвага кетганидан фойдаланган большевиклар жадидларни ҳокимиятдан маҳрум қилиш тараддудига тушадилар. Бухоро ҳукумати вакиллари

Аслида Марказ Бухоро-ни сиёсий жиҳатдан ўзига тўла бўйсундириш ҳамда иқтисодиётини қарам қилиш мақсадида Ўрта Осиё Иқтисодий Кенгаши фаолиятига кенг йўл очиш учун БХСР ҳукумати таркибининг ўзгартиришга қарор қилган эди. 1923 йил июнда РКП(б)МК Ўрта Осиё бюроси котиби

Хоразм округи ва Тожикистон АССРда турли лавозимларда ишлайди. Сўнгра Кисловодскдаги «Ўзбекистон санаторийси» директори, 1935–1936 йилларда «Ўзбеклашув» тизимида масъул лавозимда фаолиятини давом эттиради.

Маъмурий буйруқбозлик сиёсатининг авж олиши



Я. Рудзутакнинг талаби билан Отаулла Хўжаев, Муинжон Аминов, Абдурауф Фитрат, Саттор Хўжаевлар Бухородан бадарға қилинадилар. Афсуски, Бухорога етиб келган Файзулла Хўжаев маслакдошларига ҳеч қандай ёрдам бера олмайди.

Ф. Хўжаев Ўзбекистон ССРда ҳукумати бошлиғи бўлиб иш бошлаганидан сўнг Бухоро Республикаси ҳукуматида ишлаган айрим маслакдошларини яна масъул вазифаларга қўяди. Отаулла Хўжаев вазият қалтис тус олиб бораётганидан хулоса чиқариб, ўзини бир муддат сиёсий ҳаётдан узоқ тутди. У 1925 йилдан ногиронларнинг бутун ўзбек уюшмаси раиси ўринбосари, 1930–1933 йилларда

натijasида Файзулла Хўжаевни бадном қилиш мақсадида Отаулла Хўжаев 1937 йил 17 январь куни қамоққа олинади.

1937 йил сентябрда (манбаларда санаси кўрсатилмаган ва катта қисми ўчирилган) гўёки гастронном дўкони мудирини бўлган вақтда 62 567 сўмлик камомадга йўл қўйган деб, Отаулла Хўжаев раҳбарлигида 8 кишига нисбатан тўхмат асосида суд бўлиб ўтади. 1937 йил 14 октябрь куни НКВД ҳузурига «учлик» қарори билан отувга ҳукм қилинган. Отаулла Хўжаев 1937 йил 25 октябрда БХСРнинг раҳбар арбобларидан 17 нафар сафдоши билан биргаликда Тошкент шахрида отиб ташланади.

Орадан йиллар ўтиб, Ватан озодлиғи, миллий мустақиллик учун курашишни олий мақсади деб билган Отаулла Хўжаев 1965 йил 2 декабрда оқланди...

Отаулла Хўжаев сингари ватанпарвар боболаримизнинг шон-шарафга тўла, жасорат ва матонатга йўғрилган ҳаётини ўрганиш, уни ёш авлодга ўргатиш бугунги куннинг энг муҳим вазифасига айланаётгани қувонарлидир.

Отаулла Хўжаев сингари боболаримиз орзу қилган ёшларда бугун айнан шундай имкониятлар бор. Уларнинг ота-боболарига муносиб ворис бўлишларига ишонамиз. Зеро, ишонч – катта кучдир.

Шерзод  
АБДУСАМАДОВ,  
журналист.





YO'L BOSHIDA

## EGRI BUTOQNI NIHOLIDA TOBINI OL

**Baxtiyorning otasi xoriiga ishlashga ketganidan keyin, tabiiyki, nazorat susaydi. Onasi ham ertay-u kech ro'zg'or tashvishi bilan ovora bo'lib, unga ko'p ham e'tibor berolmasdi. O'g'il bolaga ota tarbiyasi nihoyatda muhimligi sezila boshladi. Balog'at yoshda emasmi, qiziqqon Baxtiyorning darslarni o'zlashtirishi sustlashdi. Hatto ayrim darslarga kirmaslikni ham odat qildi.**

Bola bekor va nazoratsiz bo'lgach, darrov ularni «boshini silaydigan» topiladi. Baxtiyor yomon bolalarga qo'shilib qolganini o'zi ham fahmlamay qoldi. Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi, deganlaridek, u yangi «o'rtoqlari»ga qo'shilib, huquqbuzarlik sodir qildi.

Bu xatti-harakatiga huquqiy baho berilib, otanasi ogohlantirilgach, Baxtiyor Muzrabot tumani IIB Probatsiya guruhi nazoratiga olindi. Endi uning tarbiyasi bilan tuman IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish guruhi katta inspektori, katta leytenant Nasiba Majitova ham shug'ullana boshladi.

Katta inspektor dastlab Baxtiyor bilan profilaktik suhbatlar olib bordi va uning qiziqishlari, oilasi bilan yaqindan tanishdi. Onasiga birgalikda harakat qilinsa, o'g'lining xulqida o'zgarish bo'lishini tushuntirdi. Maktabdagi o'qituvchilari bilan yaqin hamkorlik samarasi o'laroq, Baxtiyor o'zi qiziqqon

shaxmat va futbol to'garagiga jalb qilindi. To'garak mashg'ulotlarida o'qituvchi interfaol usullardan foydalanishga harakat qildi, bolaning mashg'ulotda erkin fikrlay olishi,

ijodkorlik mahoratini oshkora namoyish eta olishiga imkon yaratdi. Sekin-astalik bilan Baxtiyorda ijobiy o'zgarishlar sezila boshladi.

– O'smir yoshdagi bolalarning tarbiyasiga ozgina beparvolik qilinsa, xulqida salbiy tomonga o'zgarishlar kuzatiladi, – deydi katta leytenant Nasiba Majitova. – Uni yana to'g'ri o'zanga yo'naltirish uchun maktab, ota-ona va ichki ishlar organlari inspektorlari, kerak bo'lsa, mahalla faollari ham birgalikda harakat qilishi lozim. Bu kabi voyaga

yetmaganlarning bir nechasi bilan shunday tartibda ish olib bordik va natijalarimiz yomon emas.

Tuman IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish guruhi tomonidan ayni paytda tumandagi 58 ta kasb-hunar va umumta'lim maktabida profilaktik tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Xususan, joriy yilda tungi reydtadbirlarida voyaga yetmaganlarning internet klublarida yurganligi bo'yicha 3 ta holat aniqlandi va tegishli tartibda ma'muriy choralar qo'llanildi.

Aytish kerakki, tuman 3-sektori hududida yashaydigan va otaliqqa olingan 3637 nafar yoshlar o'rtasida sektor rahbarining tashabbusi bilan sport musobaqalari, «Zakovat» intellektual o'yini, kitobxonlik tanlovlari tashkil etilmoqda. Bundan tashqari, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida harbiy qismlarda «Ochiq eshiklar kuni» tadbirlari o'tkazilib, harbiylarning xizmat faoliyati hamda harbiy texnika, qurol-aslahalar bilan yaqindan tanishtirib kelinmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar hududda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni kamayishiga xizmat qilmoqda.

**Feruza RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.  
*Surxondaryo viloyati.*



KIBERJINOYAT

## ASLIDA «NARGIZA» KIM?

**Hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan internetda virtual tanishuvlarga, boshqacha aytganda, kiberromantikaga bugun odatiy hol sifatida qaralmoqda. Afsuski, turli tanishuv resurslarida onlayn videomuloqot, translyatsiya, virtual striminglar orqali masofaviy munosabatga kirishib, tuyg'ularni izhor qilish deya talqin qilinadigan kiberromantikaga berilish holatlari nafaqat yoshlar, balki o'rta va hatto katta avlod vakillari o'rtasida ham uchramoqda.**

Qarshi shahrida yashovchi G'.X. 2022-yilning kuz faslida «Telegram» ijtimoiy tarmog'ida Nargiza ismli qiz bilan tanishadi. Onlayn suhbatlardan so'ng, o'zaro yaqin munosabatga kirishishgach, ular bir-biriga o'z suratlarini yuborishadi.

Nima sabab bo'lib munosabat salbiylashadi va shundan keyin «Nargiza» erkakni unga pul bermasa, yuborgan suratlarini ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish bilan qo'rqitadi. G'.X. qarindoshlari, tanish-bilishlari orasida sharmanda bo'lmaslik uchun dastlab talab qilingan pulni bank plastik kartasiga tashlab beradi. Bundan ruhlangan qiz undan yana 200 AQSH dollari berishini talab qiladi.

G'.X.ning ichki ishlar organlariga qilgan murojaati yuzasidan tezkor texnik harakatlar olib borildi. Qarangki, bu jarayonda o'zini «Nargiza» deb tanishtirgan shaxs aslida erkak kishi bo'lib chiqdi. U firibgarlik yo'li bilan jabrlanuvchidan o'zi va turmush o'rtog'ining nomiga ochilgan bank plastik kartalariga jami 6 million so'mdan ortiq pul mablag'ini qo'lga kiritgan.

Holat yuzasidan Mirishkor tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi tomonidan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

**Suhrob MUHAMMADIYEV,**  
kapitan.

*Qashqadaryo viloyati.*



XIZMAT JOYI – QOROVUL QO‘SHINLARI

## VATANNI QO‘RIQLAR YIGITNING MARDI

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari safida yigitlik burchini o‘tab qaytgan yoshlarning aksariyati xizmatni kontrakt asosida davom ettirishga astoydil harakat qilishadi.



Harbiy qism qo‘mondonining o‘rinbosari, podpolkovnik Azizbek Yusupov va aloqa posti katta texnigi, II darajali serjant Oybek Yuldashev.

– Armiyada harbiy xizmat yigit kishini tartib intizomga o‘rgatib, keyinchalik hayotda asqatadigan bilim va ko‘nikmalarni beradi. Jismoniy va ruhimizni chiniqtirib, toblaydi, ota-onaga nisbatan mehr-oqibat tuyg‘ularini yanada kuchaytiradi, – deydi Andijon shahridagi 7553-harbiy qism seksiya komandiri, kichik serjant Sarvar Ergashov.

– Bizning jamoamizda yurtimizning turli hududlaridan kelgan yigitlar bor, – deydi harbiy qism komandiri vazifasini bajaruvchi, mayor Muzaffar Jamolov. – Ayniqsa, mayor Shukurillo Abdurazzoqov, leytenant Xurshidbek Bozorov, III darajali serjantlar – Fayzullaxon Hojixonov hamda Jahongir Mirzakarimov, II darajali serjant Oybek



Nazoratchi-o‘qchi, oddiy askar Shohjaxon Quدراتillayev.



Oddiy askarlar Mirjalol Rahmonov va Faridjon Rustamov kutubxonada.

Yuldashev, I darajali serjant Mavlonbek Botirov kabi harbiy xizmatchilar boshqalarga o‘rnak bo‘lib, o‘z xizmat majburiyatlarini a‘lo darajada uddalab kelishmoqda.

Bo‘linmada samarali xizmat qilish va madaniy dam olish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Qariyb, ikki ming nusxaga teng kitob fondi bo‘lgan kutubxona faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu ziyo maskanida kitoblardan tashqari, gazeta va jurnallarning yangi sonlarini ham o‘qib borish mumkin. Sport ixlosmandlari uchun kichik suzish havzasi, voleybol maydoni va trenajorlar muntazir. Us-



Seksiya komandiri, kichik serjant Sarvar Ergashov.

toz-shogird an‘anasi ham keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, yosh askarlar tajribali harbiy xizmatchilarga birlashtirilgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha ilg‘orlarni aniqlash maqsadida o‘tkazilayotgan tanlovlar yosh askarlarning kasb mahoratini oshirishga xizmat qilmoqda.

Harbiy xizmatchilarning turmush o‘rtoqlarini ish bilan ta‘minlashga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Joriy yil boshidan hozirgacha 8 nafar ayol o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishli bo‘lishdi. Aksariyat bolajonlar Andijon viloyati IIB tasarrufidagi «Paxtaoy» MTMga borishadi.

**Boris KLEYMAN,**  
o‘z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

PROFILAKTIKASI XIZMATI

## ELNING KO‘RKI ER BILAN, ERNING KO‘RKI TER BILAN

Odatdagidek kunbotarda mahallani bir sira aylanib chiqqan profilaktika inspektori, katta leytenant Shahzod Hasanov xizmat xonasiga kirib, yurituvdagi hujjatlarga ma‘lumotlarni kirita boshladi. Ammo katta leytenant ishini oxiriga yetkaza olmadi. Chunki mahallaga o‘rnatilgan kuzatuv kameralari tasvirlarini o‘zida jamlovchi monitorida ikki o‘spirinning yoqalashayotganiga ko‘zi tushgandi.



Shu bois janjalni bartaraf qilish uchun 10-sonli o‘rta umumta‘lim maktabi tomon yugurdi. Biroz kech yetib kelgan bo‘lishiga qaramasdan, o‘smirlar mushtlashishga ulgurganliklari qizargan yuz va bo‘yinlari, chang kiyimlaridan sezilardi. Profilaktika inspektori o‘quvchilarni ajratib, ularni xizmat xonasi tomon boshladi. Shu bilan birga, kelishmovchilikni befarq to-

mosha qilgan o‘nga yaqin yoshga dashnom berishni unutmadi.

Katta leytenant «mush-tumzo‘rlar»ning ota-onalari yetib kelgunga qadar bolalarga tan jarohati yetkazish va bezorilik oqibatlarini tushuntirdi.

Oradan 20 daqiqa o‘tar-o‘tmas, masala ota-onalar, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, yoshlar yetakchisi va profilaktika inspektori ishtirokida

muhokama qilindi. O‘z navbatida, farzandlarning ta‘lim-tarbiyasiga e‘tiborsiz qaraganliklari uchun U.S. hamda M.Sh.ning ota-onalariga nisbatan ma‘muriy bayonnoma rasmiylashtirildi. Ertasi kuni masala maktabda uyushtirilgan yig‘ilishda ko‘rib chiqildi.

Katta leytenant Shahzod Hasanovning shu singari sa‘y-harakatlari natijasida Zafarobod tumanining 7 ming 138 kishi istiqomat qiladigan «Uzun» mahallasida joriy yilda birorta ham jinoyat qayd etilmadi.

Profilaktik tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirib, yaxshi natijalarga erishayotganligi sababli mahalla ahlining ko‘ngliga yo‘l topayapti. Aytganча, o‘tgan yili jinoyat qidiruv tizimida faoliyat ko‘rsatadigan hamkasbi, katta leytenant Suhrob Tolliboyev bilan birga fermer xo‘jaligi dalasidan suv nasoslari o‘g‘irlanishiga oid jinoyatni fosh qildi.

Tergovga qadar surishtiruv davomida gumon qilinuvchilar Paxtakor, Mirzacho‘l, Sharof Rashidov, Do‘stlik tumanlarida ham ayni mazmundagi o‘ndan ortiq qonunbuzarliklarni sodir etganliklari ma‘lum bo‘ldi.

**Alijon ABDUSATTOROV,**  
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

## «Taklifi» o‘tmadi

Fuqaro A.I. Norin tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, katta leytenant Alimardon Mamatvaliyevdan tuman IIB Navbatchilik qismida ro‘yxatga olingan arizasida ko‘rsatilgan bankning Namangan filiali hamda o‘ziga tegishli bo‘lgan firma o‘rtasida tuzilgan shartnoma bo‘yicha qayta ekspertiza tayinlashni iltimos qiladi. Arizasini ijobiy hal qilsa, evaziga 10 million so‘m pora berishini «taklif» qiladi. Xodim bu qilmishi qonunga zidligini tushuntirishiga qaramasdan, fuqaro o‘z fikrida qat‘iy turib oladi.

O‘tkazilgan tezkor tadbir davomida fuqaro A.I. profilaktika katta inspektoriga 7 million 400 ming so‘m va 200 AQSH dollarini pora sifatida berayotgan vaqtda xolislar ishtirokida qo‘lga olinadi.

Mazkur holat yuzasidan IIV SHXBB Namangan viloyati bo‘yicha bo‘limi tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
o‘z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



PROFILAKTIKA XIZMATI

## HAMISHA YELKADOSH

**Nasiba Boyovut tumanining «Sohil» mahallasida istiqomat qiladi. O'рта maktabni tugatgach, oliy o'quv yurtiga kira olmadi. Mavsumiy ishlar bilan shug'ullanib yurdi. Keyin esa shu mahallaning o'ziga kelib bo'lib tushdi. Turmush o'rtog'i bilan birgalikda ro'zg'orni butlash uchun ko'p harakat qilishdi. Topishdi-yu, lekin ortira olishmadi.**

Yaqinda esa uning hayotida katta burilish sodir bo'ldi. Nasiba tuman IIB rahbari, podpolkovnik O'tkir Begimovning yoshlar bilan uchrashuvida tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi ekanini bildirib, yordam so'radi. Uning murojaatiga asosan hokimlik bilan hamkorlikda subsidiya ajratildi. Mahallaning katta yo'lga yaqin qismida joylashgan bo'sh turgan savdo binolaridan biri ijaraga olinib, tikuv mashinalari o'rnatildi.

Tikuvchilik bo'yicha yaxshigina malakaga ega Nasiba Musayeva yana ikki nafar ayolni yoniga oldi. Ish qizib ketdi. Dastlab shu atrofda

ayollardan buyurtma olgan yosh tadbirkor, keyinchalik mahalliy bozor uchun kiyim-kechaklar tikishni ham yo'lga qo'ydi. Tuman IIB masu'llari esa uni doim qo'llab-quvvatlab turdi.

– Yosh tadbirkorlarning holidan xabar olib, duch kelinayotgan muammolarni bartaraf etilishida ko'mak ko'rsatib turibmiz, – deydi Boyovut tumani IIB HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Komil Do'stmurodov. – Natijada yangi faoliyat boshlagan yoshlarning ishi oldinga qarab siljimoqda.



sport, huquqiy tadbirlar jo'shqin avlod vakillari tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi.

«Uchturgan» mahallasida qariyb, uch ming uch yuzdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Mahallada to'rtta ko'pqavatli uy, tuman shifoxonasi, kafe-restoranlar joylashgan. Aynan mana shu omil jinoyatchilikning ko'payishiga sabab bo'lgan. Mahallaga tajribali xodim podpolkovnik Husan Dadaboyev profilaktika katta inspektori etib tayinlangach, vaziyat butkul ijobiy tomonga o'zgardi. U savdo do'konlari, kafe-restoranlarda huquqbuzarliklarning oldini olishga alohida e'tibor qaratdi. Yoshlar orasida tadbirlar tashkil etishni kanda qilmadi. Xonadonbay ishlash orqali aholining ijtimoiy muammolari bartaraf etila boshlandi. Natijada 2024-yilning

o'tgan davrida mahallada birorta ham jinoyat sodir etilmadi. Shu boisdan «Uchturgan» «yashil» toifaga o'tdi.

– Profilaktika katta inspektoriga doim yelkadosh bo'lib turibmiz, – deydi «Uchturgan» mahallasi raisi Alisher Mamaro'ziyev. – Birgalikda xonadonma-xonadon yurib, muammolarni o'rganganishimiz o'z samarasini bermoqda. Yoshlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirganimiz ham jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



Bu birgina misol, xolos. Qariyb, 140 ming aholi istiqomat qiladigan Boyovut tumanida amalga oshirilgan mana shunday xayrli ishlarga yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Aholining ijtimoiy muammolari hal qilishga qaratilgan choralar jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Joriy yilda tumanda uch yuzdan ortiq profilaktik tadbirlar o'tkazilgan. Ayniqsa, yosh avlodning huquqiy savodxonligini oshirish doimiy diqqat markazida. Tumandagi mavjud ellik ikkita umumta'lim maktablari, barcha mahallalardagi yoshlarni qamrab olishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy,

FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

## HALOL MEHNAT SURURI

**Iste'fodagi kapitan Sadridin Jumayev hayotda omadi chopganlardan. Negaki, el-yurtimiz osoyishtaligi yo'lida sidqidildan xizmat qilib, kasbidan obro'-e'tibor topdi. Lavhamiz qahramoni uzoq yillar Konimex tumani IIB EKBda faoliyat ko'rsatib, ko'plab ekspertiza tadqiqotlarini amalga oshirib, jinoyatlarni ochishga munosib hissa qo'shdi.**

... Shomurod otaning yaylovda o'tlab yurgan qo'ylari har haftada bir yoki ikkitaga kamayib qolardi. Avvaliga hamma bu bo'rilarning «ishi» deb o'yladi. Voqea joyida qoldirilgan uzun, ingichka izlarni sinchiklab tekshirgan Sadridin Jumayev bu «Tiko» avtomashinasining izi degan xulosaga keldi. Qishloqning bir necha zabardast yigitlari tuman IIB xodimlari bilan birga to'rt kecha-kunduz suruvni kuzatdilar. Nihoyat «Tiko» mashinasida o'g'rilik sodir etgan er-xotinlar navbatdagi jinoyat ustida qo'lga olindi. Shu tariqa ekspertning xulosasi o'z tasdig'ini topdi.

– Biz xizmat qilgan kezlari ekspert-kriminalistika tex-

nikalari hozirgi kabi takomillashmagan edi. Barmoq izlaridan sifatli nusxa olishga qiynalardik. Shu sababli ash-yoviy dalillarni bir necha kun tekshirardik. Hozirgi paytda ekspert-kriminalistlar uchun barcha sharoitlar muhayyo. Ayniqsa, maxsus avtomashinalar holatni joyida o'rganish imkoniyatini beradi, – deydi Sadridin Jumayev.

Lavhamiz qahramoni ayni paytda Konimex tumani IIB Faxriylar kengashi raisi sifatida yosh xodimlarni Vatanga muhabbat, burchga sadoqat ruhida tarbiyalashda faol qatnashib kelyapti. Iste'fodagi mayor Muzaffar Bahromov, iste'fodagi kapitan Norqul Ro'ziqulov



unga bu borada kamarbasta bo'lishyapti. Birgalikda tez-tez betob faxriylarning holidan xabar olishadi. Bir piyola choy ustida xizmat vaqtlarini eslashadi.

Shogirdlari ham talaygina. Ulardan mayor Mansur Suyundiqov Konimex tumani

IIB boshlig'ining o'rinbosari, katta leytenant Umidjon Iskandarov Konimex tumani IIB kadrlar bilan ta'minlash guruhi katta inspektori lavozimida xizmat qilishadi.

Sadridin Jumayev turmush o'rtog'i bilan bir o'g'il va bir qizni yaxshi niyatlarda

tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Xolis niyatlari ijobat bo'lib, farzandlari bugungi kunda turli sohalarida el-yurt ravnaqi yo'lida halol mehnat qilishmoqda.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Navoiy viloyati.

Урок духовности и просвещения

# СЛУЖЕНИЕ НАРОДУ – ПОЧЕТНЫЙ ДОЛГ

**Защита Родины – священный долг и почетная обязанность каждого гражданина нашей страны. Служба на благо Отечества – непростой и ответственный путь, который выбирают люди сильные, крепкие духом. Не жалея себя, они защищают покой и жизнь сограждан, порой, рискуя своей собственной.**

Служение народу всегда считалось одной из самых благородных и почетных обязанностей. Это утверждение особенно актуально для сотрудников органов внутренних дел Республики Узбекистан. Каждый день они выходят на службу, чтобы защищать общественный порядок, безопасность граждан и государственные интересы. Их труд – это не просто работа, а миссия, которая требует мужества, самоотверженности и высокого чувства долга.

Сотрудники органов внутренних дел сталкиваются с множеством вызовов, от обеспечения правопорядка на улицах городов и сел, до борьбы с организованной преступностью. Они ведут неустанную борьбу с преступниками, предотвращают правонарушения, расследуют нарушения закона, стремясь к справедливости и защите законных прав граждан. Каждое их действие направлено на поддержание стабильности в обществе, создание безопасных условий для жизни и работы людей.

В современном мире роль правоохранительных органов становится все более значимой. Глобализация и цифровизация создают новые вызовы для безопасности, такие как киберпреступность и терроризм. Сотрудники органов внутренних дел в Узбекистане адаптируются к этим вызовам, принимая активные меры для предотвращения и борьбы с новыми угрозами. Они используют передовые технологии и проходят

улучшение качества жизни граждан, повышение доверия к институтам власти, обеспечение стабильности в стране. В последние годы приняты меры по модернизации работы органов внутренних дел, улучшению условий труда, повышению квалификации сотрудников.

Изо дня в день принимаются все необходимые меры для создания новых органов внутренних дел Нового Узбекистана. Обеспечение мира и безопасности в обществе для каждого человека является одним из важнейших вопросов надежной защиты его жизни, здоровья и имущества от различных угроз. Именно поэтому первые в истории Нового Узбекистана реформы, инициированные президентом страны Шавкатом Мирзиёевым, начались в сфере обеспечения здоровья и безопасности граждан. При этом основной целью было превраще-

Правоохранительные органы Узбекистана всегда были и остаются на страже законности и правопорядка. Их деятельность – залог стабильного и безопасного общества. Независимо от того, идет ли речь о патрулировании улиц или



постоянное обучение, чтобы идти в ногу со временем.

В условиях реформ, проводимых в Узбекистане, работа правоохранительных органов выходит на новый уровень. Государство стремится к укреплению законности и правопорядка, и в этом процессе ключевую роль играют сотрудники ОВД. Их работа направлена на

ние органов внутренних дел не в карательную, контролирующую структуру, а в систему, служащую интересам народа. Сотрудники системы ОВД служат прочной опорой государства и общества в успешной реализации реформ, осуществляемых в Новом Узбекистане на основе благородного принципа «Во имя чести и достоинства человека».

расследовании сложных преступлений, сотрудники ОВД всегда готовы служить народу и защищать его интересы.

Безусловный приоритет деятельности органов внутренних дел – обеспечение безопасности граждан, защита их прав и законных интересов. К числу приоритетных задач по-прежнему относятся вопросы повышения качества расследования преступлений. Ведь за каждым обращением стоит конкретный человек, который рассчитывает на помощь и восстановление справедливости. Сегодня в качестве одного из основных оценочных критериев определено общественное мнение, основанное на уверенности каждого гражданина в личной безопасности. Невозможно принимать действенные меры без доверия общества. Люди должны знать, что делает ведомство и соответствуют ли данные действия потребностям и ожиданиям граждан. Поэтому ведется конструктивный диалог с институтами гражданского общества.

Большой блок стоящих задач перед ОВД касается повышения дисциплины и профессиональной квалификации сотрудников. Ведется бескомпромиссная борьба с любыми правонарушениями и проявлениями коррупции со стороны сотрудников органов внутренних дел. Особую роль в этом процессе играет служба собственной безопасности, выявляющая правонарушения и факты коррупции среди личного состава. Приняты меры по ужесточению требований

к руководителям и повышению их персональной ответственности за проступки и преступления подчиненных. Все это уже начинает давать результат, что подтверждается и статистикой.

Намеченные и разрабатываемые меры позволят создать высокоэффективные, технически оснащенные и открытые для населения подразделения органов внутренних дел, способные надежно защищать интересы граждан, общества и государства от любых противоправных посягательств.

Сегодня служение народу является не только служебным, но и священным долгом сотрудников органов внутренних дел по защите Родины, национальных ценностей, чести, духовного наследия узбекского народа. Следует особо отметить, что сотрудникам органов внутренних дел необходимо беречь, укреплять, обогащать, развивать такие духовные ценности, как стремление преданно служить своему народу, Родине, профессии, закону, постоянно прививать эти чувства молодым людям, решившим посвятить свою жизнь службе в системе органов внутренних дел.

Самоотверженные сотрудники готовы днем и ночью, в любую погоду выступить на защиту интересов и прав соотечественников, оберегать их мирный труд во благо Родины. Образцовым служением народу в условиях Нового Узбекистана, когда приоритетной задачей поставлены интересы человека, они вносят достойный вклад в успешную реализацию широкомасштабных реформ.

Соб. корр.



## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING «O'NG QO'LI»

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

– Hududimizda 21 ta ko'p qavatli uy bo'lib, ularda 5580 nafar aholi istiqomat qiladi, – deydi kapitan Sunnat To'rayev. – 1 ta maktab va maktab-gacha ta'lim tashkiloti hamda 3 ta xususiy klinika o'z faoliyatini olib bormoqda. Jamoliddin berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga harakat qiladi. Mahallada istiqomat qiluvchi voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlashda, ular o'rtasida huquqbuzarlik hamda jinoyatchilikning oldini olishda bizga yaqin ko'makchi.

Yaqinda u ma'muriy nazoratda turgan, sud tomonidan belgilangan cheklovlarni buzgan shaxsni aniqlab, o'z hushyorligini namoyon etdi.

Lavhamiz qahramoni oilali. Ikki nafar farzandi bor. Uning orzusi ichki ishlar organi xodimi bo'lish. Maqsadi sari ildam qadamlar tashlayotgan Jamoliddinning hozirgi faoliyati uning uchun muhim tajriba maktabi vazifasini o'tamoqda.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



### JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

## ADASHGANLARNI SUYASH LOZIM

**IIV huzuridagi JIED Oltinchi mintaqaviy hudud 27-son manzil-koloniya mahkumlarni qayta tarbiyalash jarayoni hunarga o'rgatish hamda bandligini ta'minlash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish bilan hamohang tarzda olib borilmoqda.**

– Muassasamizda mahkumlarning dehqonchilik, parrandachilik, tikuvchilik, baliqchilik, yog'och va temir ustachiligi, to'qimachilik

oilasiga, balki jamiyatga ham naf keltiradi, – deydi manzil-koloniya boshlig'i, podpolkovnik Ulug'bek Qidirbayev.



yo'nalishlarida mehnat faoliyatini olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Yangi kelgan mahkumlar uch oy mobaynida ustoz-shogird uslubida ushbu faoliyat turlarini o'rganishadi. Shuningdek, to'qimachilik, temirchilik, payvandlash va boshqa yo'nalishlarda kasbga o'qitish yo'lga qo'yilgan. Bundan ko'zlangan maqsad – ular ozodlikka chiqqanidan so'ng halol mehnat qilib, nafaqat

Mahkumlarni ma'naviy, jismoniy jihatdan tarbiyalash uchun ular o'rtasida shaxmat-shashka, voleybol, futbol, to'sinda tortilish bo'yicha musobaqalar, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib turiladi. «Iste'dod» ko'rik-tanlovlarini, «Zakovat» intellektual o'yinlarini tashkil etish ham an'anaga aylangan.

– Inson ruhiyati sir-sinoatga to'la. Shu boisdan mahkumlarning

ruhiy holatini o'rganib, psixologik portretini yaratish, xulq-atvoridagi o'zgarishlarni qayd etish maqsadida koloniyaning katta psixologi, katta leytenant Ayzada Allamberganova tomonidan ular o'rtasida psixologik so'rovnomalari o'tkazib kelinadi, – deydi koloniyaning tarbiyaviy ishlar bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Yusup Kalimbetov.

Har chorakda koloniyaning tarbiyaviy ishlar bo'linmasi boshlig'iga mahkumning xulq-atvori, mehnat jarayonlaridagi o'zgarishlar qayd etilgan xulosalar taqdim etiladi. Ushbu xulosalar Rag'batlantirish komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Shu tariqa mahkumni turli tarzda rag'batlantirish, uning jazo muddatini qisqartirish yoki boshqa ta'sir chorasi tayinlash masalasi hal etib boriladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar talablaridan, hayot

zaruratidan kelib chiqib, qonunchiligimizdagi o'zgarishlardan mahkumlarni xabardor qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirib borish maqsadida koloniya yuristkonsulti muntazam ravishda targ'ibot ishlari olib boradi. Bundan tashqari, har oyda huquqni muhofaza qilish idoralari va mahalliy hokimiyat vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etiladi.

Xulosa tariqasida aytadigan bo'lsak, hayotda adashmaydigan insonning o'zi bo'lmaydi. Shunday ekan, qo'qilganlarni suyash, xatosini anglab yetganidan so'ng jamiyatda o'z o'rnini topishida ularga yordam berish har birimizning insoniylik burchimiz bo'lmog'i lozim. Mazkur muassasa xodimlari bu boradagi burchini sidqidildan bajarishmoqda.

**Azamat PIRNIYAZOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



## KEKSALAR HAFTALIGI

## ■ Xorazm

**Xorazm viloyati IIB hamda Faxriylar kengashi a'zolari haftalik doirasida uzoq yillar yurtimiz osoyishtaligini ta'minlashda samarali xizmat qilgan ichki ishlar organlari faxriylari xonadoniga borib, xabar olishdi.**

Jumladan, viloyat IIB boshlig'ining o'rinbosari, polkovnik M. Atabayev qo'shko'pirlik iste'fodagi starshina Egambergan Yaqubov xonadonida bo'lib, unga Ichki ishlar vazirining buyrug'iga binoan «Ichki ishlar organlari faxriy xodimi» ko'krak nishonini topshirdi.

Egambergan ota ichki ishlar organlarida 25 yildan ortiq xizmat qilgan. Qo'shko'pir tumani IIBda uzoq yillar haydovchi bo'lgan. Qisqa muddat IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'linmasi militsioneri lavozimida ishlab pensiyaga chiqqan.

– Bunday e'tirof va g'amxo'rlikdan juda mamnun bo'ldim, – dey-



di iste'fodagi otaxon. – Xizmat faoliyatimni e'tiborga olib, shunday yuksak mukofotga munosib topganlari uchun Ichki ishlar vazirligi rahbariyatiga minnatdorlik bildiraman.

Samimiy suhbat davomida otaxon xizmat xotiralarini yodga olib, bugungi dorilamon kunlarga shukronalar aytdi. Ta'kidlash kerakki, Egambergan otaning uch o'g'il va ikki nafar qizi bo'lib, o'g'li – katta serjant Haydarjon Yaqubov otasi izidan bordi va viloyat IIB YHXB 5-safarbarlik guruhi katta inspektori lavozimida faoliyat yuritmoqda.

**O'z muxbirimiz.**

## ■ Surxondaryo

Haftalik doirasida Surxondaryo viloyati ichki ishlar organlarining bir guruh faxriylari viloyatning Sherobod tumanidagi Iso Termiziy, Termiz tumanida joylashgan Al-Hakim at-Termiziy ziyoratgohlariga hamda «Fayoztepa» tarixiy obidasiga tashrif buyurishdi.

Ular al-Hakim at-Termiziy maqbarasida joylashgan muzeydagi mavjud ekspozitlar, arxeologik topilmalar to'g'risida ma'lumot olishdi.

**O'z muxbirimiz.**



## ■ Samarqand

So'zlari hikmat, ishlari ibrat bo'lgan nuroniylarning boy hayotiy tajribalaridan foydalanish sohada samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Samarqand viloyati IIB Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasida soha faxriylari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, jamiyatda barqaror sog'lom muhitni vujudga keltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni targ'ib qilishda faxriylarning ishtiroki muhimligi ta'kidlandi. Ularning maslahatlaridan foydalanish, «Ustoz-shogird» an'anasini davom ettirish yosh xodimlar uchun ahamiyatli ekani qayd etildi.

## ■ Andijon

Viloyat IIB faxriylar kengashi a'zolari 95 yoshni qarshilayotgan iste'fodagi mayor Malikov Abduqahhor otaning xonadoniga borib, faxriy xodimning holidan xabar olishdi.

Shuningdek, tadbir doirasida tibbiyot bo'limi xodimlari, iste'fodagi mayor Bahodir Mamedaliyev hamda iste'fodagi polkovnik Muhsinjon Xoldorovlarning uylariga borishib, ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazib, kerakli muolajalarni ko'rsatishdi.



★ В образовательных учреждениях МВД

## УСПЕХИ, РАДУЮЩИЕ НАС

Молодежная политика нашего государства направлена, прежде всего, на воспитание юношей и девушек, способных быть движущей силой перемен. Именно им доверена задача – раскрыть свой потенциал и построить мир, пригодный для жизни будущих поколений.



Одаренная и верная Родине молодежь проявляет активность, вносит достойный вклад в процесс создания нового фундамента развития страны. Пример тому – учащаяся нашего академического лицея Сакина Джумаева. С детских лет она занималась художественной гимнастикой,

потом и таэквондо, не забывая при этом об учебе. В копилке ее спортивных наград есть победы на областных и республиканских соревнованиях. Отличительной чертой девушки являются скромность, дисциплинированность, упорство, целеустремленность.

В апреле этого года Сакина получила сертификат на знание английского языка CEFR B2, тогда же приняла участие в спартакиаде «Потомки Джалолиддина Мангуберды» для учащихся академических лицеев МВД Республики Узбекистан. Сакина заняла не одно, а два призовых места. Первое в многоборье по разборке и сборке пистолета «Макарова» и третье место в многоборье по комплексным силовым упражнениям.

Глядя на перспективную молодежь, которая равнодушна к себе, и ставит перед собой высокие цели, мы безмерно гордимся и верим тому, что будущее страны со временем окажется в надежных руках.

**Раъно ХОДЖАЕВА,**  
преподаватель русского языка и литературы  
Бухарского академического лицея МВД  
Республики Узбекистан.

### ■ Республика Каракалпакстан

## ПРОВЕРКА РУЧНОЙ КЛАДИ ОБНАРУЖИЛА...

На пути строительства гражданского общества, основанного на верховенстве законов, особое внимание уделяется обеспечению демократических принципов равенства и свободы. Статья 35 Конституции в новой редакции гарантирует свободу совести, устанавливает, что каждый гражданин вправе исповедовать любую религию или же не исповедовать вовсе.

Вместе с тем процесс глобализации оказывает определенное влияние на сознание наших граждан, так называемая массовая культура оказывает негативное влияние на национальные традиции, обычаи, ценности. В последнее время актуальной становится борьба за умы молодежи. С целью вербовки новых членов через социальные сети ведется пропаганда деструктивных религиозных учений. Раскольничьи взгляды становятся причиной раздора среди верующих, провоцируя даже межнациональные разногласия.

Для борьбы с вышеуказанными вызовами и угрозами, пресечения проникновения и распространения литературы соответствующего содержания органы внутренних дел ведут целенаправленную



работу, усиливают профилактические мероприятия. И все же наблюдаются случаи ввоза на территорию республики запрещенной литературы соотечественниками, попавшими под влияние псевдоучений в период пребывания за границей.

Так в сентябре во время проверки пассажиров авиарейса «Алматы–Нукус» и их багажа вызвала подозрение гражданка, чей наряд не позволял провести идентификацию личности. Позже было установлено, что Г. Х. уроженка Берунийского района, 1988 года рождения. В ее мобильном телефоне и ноутбуке хранились материалы религиозного толка.

Комитет по религиозным делам Республики Узбекистан дал заключение по обнаруженным у Г. Х. материалам, согласно которому некоторые запрещены в нашей стране.

По данному факту ведется предварительное следствие.

**Баймурат КУТЛИМУРАТОВ,**  
майор.

★ Спорт



## ПОБЕДИЛИ СИЛЬНЕЙШИЕ

В целях исполнения Указа Президента страны «О мерах по широкой пропаганде здорового образа жизни и дальнейшего развития массового спорта» в Ургенче были организованы соревнования по волейболу на кубок начальника Хорезмского областного УВД. В них приняли участие сборные команды служб областного УВД и городских и районных отделов внутренних дел.

Матчи проходили увлекательно. Компетентные судьи беспристрастно оценивали игры. По итогам первое место заслуженно завоевала сборная команда УООП СОБ областного УВД. Второе и третье места заняли соответственно команды Гурленского и Хазараспского районов. Среди женщин не было

равных команде «Адолат». В число призеров также вошли представительницы команд «Зулфия» и «Тумарис».

Победители и призеры турнира награждены кубками, дипломами и памятными подарками.

**Соб. корр.**  
Хорезмская область.



## MULOHAZA



## LOQAYDLIK – ILLATLARNING ENG YOMONI

**Yo'l harakati qoidalarini buzuvchilar haqida gap ketganda, birinchi galda haydovchilar tilga olinadi. Vaholanki, piyodalar o'rtasida ham qoidabuzarlar uchrab turadi. Poytaxtimiz misolida oladigan bo'lsak, joriy yilning 9 oyi davomida piyodalar ishtirokidagi qoidabuzarliklar soni 116 ming 806 tani tashkil etdi.**

Ushbu holat bilan bog'liq e'tiborimni tortgan birinchi muammo, piyodalar svetoforning qizil chirog'ida, yo'lni kesib o'tishi bo'ldi. Bunday qaltis vaziyatda transport vositasi harakatlanmayotgan bo'lsa-ku uning baxti, ammo buning aksi bo'lsa-chi?!

Ayniqsa, piyodalar o'tish joyi bo'lganiga qaramay yo'lning belgilanmagan qismidan o'tayotgan fuqarolarni ko'rib, yanada taajjubga tushasan kishi. Yerosti yo'lagi turib, serqatnov ko'chani kesib o'tayotgan qoidabuzarlarga nima deysiz?!



Toshkent shahrida haydovchilar tomonidan svetoforning qizil chirog'ida o'tib ketish holatlari 9 oy yakuniga ko'ra, 5016 tani, harakat paytida mobil aloqa vositalaridan foydalanish 7656 tani tashkil etgan. Yo'llarda avtomobillar soni ko'payib, tirbandliklar keskin oshayotgan bir pallada haydovchilardan qoidalarga qat'iy amal qilib, hushyorlikni yanada kuchaytirishini so'rab qolardik.

Chorrahalaridan quloqchin taqib bemalol o'tayotgan ayrim insonlarni ko'rib esa, ularni o'z hayoti, taqdiri qiziqtirmasmikan, degan savol qilyaydi. Boisi, bunday vaziyatda svetoforning taqiqlangan chirog'iga qaramasdan, biror og'ir kasalni olib ketayotgan tez yordam mashinasi yoki yong'in o'chirish mashinasi signalini eshitmasdan, kutilmaganda uning yo'liga chiqib qolsa bormi...

Yuqorida keltirilgan bu raqamlarning barchasi ana shunday beparvolikning oqibatida yuzaga kelgan desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur qoidabuzarliklar uchun tegishli qonun hujjatlari asosida javobgarlik belgilanib, chora ko'rilishi-ku aniq. Biroq kimningdir qoidalarga bepisandligi tufayli bir insonning mayib-majruh bo'lib qolishi yoki hayotdan ko'z yumishi juda achinarli holdir.

Shu sababli yo'llarda harakatlanish madaniyatini yanada yuksaltirish borasida hali ko'plab targ'ibot ishlarini amalga oshirish zarur. Xoh piyoda, xoh haydovchi bo'laylik, belgilangan qoidalarga qat'iy amal qilib harakatlansak, o'zimiz, oilamiz uchun ham, jamiyatimiz uchun ham foydadan xoli bo'lmas edi.

**Mixli SAFAROV,**  
o'z muxbirimiz.

## Sohaviy xizmatlarda

## HAROM YEMAK – TOMOQQA ZIYON

**Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumani «Ravot» mahallasida yashovchi M.D. foyda olish ilinjida Samarqand viloyatining turli hududlaridan chorva mollarining kalla, tuyoq va ichaklarini to'plashga kirishdi. Biroq uni sifat masalasi zarracha qiziqtirmadi, shu bois yiqqan 1,5 tonna mahsulotni veterinar tekshiruvdan o'tkazmadi. Kamiga go'shtni maxsus jihozlanmagan «Kia Bongo» rusumli avtomashinaga ortdi.**

M.D. yuk mashinasida poytaxtga yo'lga otlandi. Soat 23:30larda Jizzax viloyatining G'allaorol tumaniidagi «Sangzor-15» blok-postida «Kia Bongo» avtomashina to'xtatildi. Sifati talabga javob bermasligi yaqqol ko'rinib turgan mahsulot laboratoriyada tekshiruvdan o'tkazildi. Tahlillar go'shtning iste'molga yaroqsiz ekanini ko'rsatdi hamda kalla, tuyoq va o'pkalar yo'q qilindi. Tabiiyki, qilmishiga yarasha M.D.ga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, jarimaga tortildi.

Jizzax viloyati IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi xodimlari shu tarzda sifatsiz mahsulotlar savdosining oldini olish choralari ko'rmoqdalar. Chunonchi, ayni maqsadda soha vakillari tomonidan shu yil hisobiga ko'cha bozorlar, savdo shoxobchalari, kushxonalar va boshqa obyektlarda 989 ta reytd o'tkazilgan. Natijada 2 tonna 638 kilogramm go'sht, 1 tonna 566 kilogramm sut, 475 kilogramm baliq, 598 kilogramm oziq-ovqat mahsulotlari, 631 kilogramm tuzlama va 3282 dona tuxum savdodan olingan. Xuddi shunday, maxsus jihozlanmagan avtomashinalarda tashilayotgan 15 tonna 61 kilogramm go'sht ushlab qolingan. O'z navbatida, iste'molga yaroqsiz mahsulotlarni pullashga chog'langan 16 nafar shaxsga nisbatan ma'muriy jarimalar belgilandi.

Soha vakillari savdo va kushxona xodimlari, haydovchilar ishtirokida muntazam targ'ibot ishlarini o'tkazishyapti. Bu jarayonda yuqumli kasalliklarning oldini olish, sifatsiz mahsulotlarning inson salomatligiga ziyoni hamda mazkur yo'nalishdagi qonunbuzarliklarning oqibatlari tushuntirilmoqda.

**Alijon ABDUSATTOROV,**  
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.





Kosonsoy tumanidagi tog' bag'rida joylashgan «Nurli maskan» maktab-internatida 240 nafar nafar o'g'il-qizlar tahsil oladi. Tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi bilan hamkorlikda tikuvchilik, to'quvchilik, pazandalik, robototexnika va boshqa yo'nalishdagi to'garaklarda o'quvchilar hunar o'rganishmoqda.

# NIHOL

yoshlar sahifasi

## O'Z VAZN TOIFASIDA G'OLIB



faxrli 1-o'rinni egalladi. Parizodaga kelgusi musobaqalarda ham omad yor bo'lishini tilaymiz.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

24-betdagi savol javobi: bilyard

## ORZULARI OSMON BOLALAR

Shuningdek, musiqa va xonandalik yo'nalishiga qiziquvchi o'quvchilarni e'tiborga olib, 4-sonli musiqa va san'at maktabi bilan hamkorlikda 4 ta yo'nalishda to'garaklar tashkil etilgan.

Paradzyudo, parabolbol, yengil atletika, shaxmat va shashka, paravelotrek kabi sport turlari bo'yicha to'garaklarida esa viloyat Olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejining malakali o'qituvchi va murabbiylari mashg'ulotlar olib borilishi yo'lga qo'yilgan.

Bekzodbek Turdaliyev va Elyorbek Akramjonov qo'shiq aytishga qiziqadi. Ular ijrosidagi «Mayor akam», «Qalbim orzusi» qo'shiqlari viloyat Ichki ishlar boshqarmasi ko'magida ovoz yozish studiyasida yozib olingan.

Biroz tortinchoq, shu bilan birga mulohazali 10-sinf o'quvchisi Elyorbek Akramjonov skripka chaladi. «Asosiy yo'nalishim an'anaviy xonandalik. Qo'shiq aytsam, o'zimni juda boshqacha his qilaman» – deydi u chehrasi yorishib.

8-sinf o'quvchisi Bilol Abdullajonov esa bo'sh vaqtlarida badiiy asarlar o'qiydi. Audio kitoblar tinglashni ham kanda qilmaydi.

Maktab-internatning 11-sinf o'quvchisi Jamolxon Ergashev ham adabiyot shaydosi.

Gulina Isayeva ham umidli yoshlardan. U o'tgan yili «Vatan taraqqiyotiga mening hissam» ko'rik-tanlovida tumanda birinchilikni qo'lga kiritgan edi. Gulina kelajakda milliy estrada xonandaligi yo'nalishida ijod qilib, san'atimiz rivojiga hissa qo'shish niyatida.



– O'quv dargohimizdagi har bir o'quvchining o'ziga yarasha iste'dodi bor. Kimdir sport yo'nalishida, yana kimdir fan sohasida yaxshi natijalar ko'rsatib kelmoqda. Masalan, o'tgan yili parayengilatletika yo'nalishida respublika kubogi musobaqasida nayza otish bo'yicha Muzaffar Tirkashev, uzoqlikka



– Bizga shukronalik tuyg'usi bilan yashashni, hayotni sevishni o'rgatgan ustozlarim baxtimizga omon bo'lishsin, – deya «Ustozimga» she'rini ifodali o'qib berdi:

*Siz borsiz, jannat dunyo,  
G'amlar yo'qdayin go'yo.  
Sizday bo'lolmas hech kim,  
Aziz ustozim.*

*Dunyo sirlarin ochgan,  
Qalbg'a yaxshilik sochgan,  
Sizdan minnatdorman men,  
Aziz ustozim.*

«Nurli maskan»ning 7-sinf o'quvchisi

yugurish bo'yicha o'g'il bolalar o'rtasida Dilshod Turdaliyev, dzyudo yo'nalishida Ziyoda Tursunboyeva va Og'abek Ibrohimjonov oltin medalni qo'lga kiritdilar. Yoshlar o'rtasida O'zbekiston chempionati musobaqalarini esa o'quvchilarimiz 2 ta oltin, 3 ta kumush, 4 ta bronza medallar shodasi bilan yakunlashdi, – deydi faxr bilan maktab-internatining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinborsari Murodjon Darveshov.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,**  
o'z muxbirimiz,

Namangan viloyati.

IIV Navoiy akademik litseyida respublika miqyosidagi hamda xalqaro sport musobaqalarida muvaffaqiyatga erishayotgan o'quvchi yoshlar anchagina. Parizoda Mustafoyeva ana shundaylardan biri. U yaqinda Nukus shahrida sambo bo'yicha bo'lib o'tgan O'zbekiston kubogi bahslarida 80 kilogramm vazn toifasida qizlar o'rtasida

## BIZ SEN BILAN FAXRLANAMIZ



turi bo'yicha «O'zbekiston kubogi» uchun kurashilgan musobaqada 67 kg vazn toifasida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Azizbek Bahodirov 2007-yilning 14-may kuni Toshkent shahrida tug'ilgan. U yoshligidan muay-tay sport to'garagiga muntazam qatnashib kelmoqda. Osiyo chempioni.

Azizbek ayni damda litseyda qunt bilan bilim olish bilan birga tajribali murabbiylari ko'magida sportda, o'qishida oliy o'quv yurtiga kirish uchun tinmay harakat qilmoqda.

Uning orzulari bisyor. Kelajakda jahon chempionatida oltin medalga ega bo'lish, shuningdek, IIV Akademiyasida o'qishni davom ettirish.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, litsey o'quvchilari orasida yosh iqtidorli sportchilar safi yil sayin kengayib bormoqda. Tomirida buyuk ajdodlar qoni jo'sh urayotgan Azizbek kabi sportga ixlosmand dovyurak yoshlarimizning bundanda yuksak marralarni egallashiga, albatta, ishonamiz.

**Madina QAHHOROVA,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

## KURSANT IJODIDAN

Skarlett Ishniyazova 2022-yilda IIV Xorazm akademik litseyini imtiyozli diplom bilan tugatgan. Hozirda IIV Akademiyasida tahsil olmoqda. Skarlett huquqshunoslik ilmini puxta egallashi bilan birga rassomchilik, musiqa, sport hamda she'riyat bilan ham muntazam shug'ullanib keladi. Quyida uning ijod namunalaridan e'tiboringizga xavola etamiz.

### VATANIM

Vatan so'zi bunchalar go'zal,  
Bitgim kellar senga ming g'azal.  
Muqaddassan, azaldan-azal,  
Sajdagohsan, o'zing Vatanim.

Sening bag'ring bunchalar ham keng,  
Senga kelmas biror narsa teng.  
Bunchalar ham issiqdir mehning,  
Sajdagohsan, o'zing Vatanim.

### O'ZBEGIM O'G'LONLARI

Yurtin jondan sevishar,  
Xizmatga shay turishar,  
Sodiq posbon bo'lishar,  
O'zbekim o'g'lonlari.

Xalqqa tayanch, mehribon,  
Kamtar, jasur, pahlavon,  
Elga hamrohdir har on,  
O'zbekim o'g'lonlari!

**Skarlett ISHNIYAZOVA,**  
IIV Akademiyasi kursanti.

## ■ Джизакская область



**Как только молодая женщина, идущая с двумя детьми, увидела инспектора профилактики старшего лейтенанта Юсуфа Исмоилова, просветлела лицом и начала выражать благодарность. Настроение встречной передалось и инспектору профилактики.**

Вместе с председателем махалли Зокиром Сафаровым инспектор приложил немалые усилия, чтобы примирить женщину с мужем и обеспечить семью собственной крышей над головой. Таким образом была оказана помощь еще одной неблагополучной семье махалли Чиланзар Пахтакорского района.

Все мероприятия и акции, в том числе профилактического содержания, проводятся здесь сообща с махаллинской семеркой. На основе более 150 представлений, внесенных старшим лейтенантом, удалось обеспечить самозанятость 51 жителя махалли, еще 28 молодых людей обучены профессиям.

Благодаря усилию инспектора с начала года в махалле Чиланзар не совершено ни одного преступления.

В 2023 году занял первое место в областном этапе смотра-конкурса «Самый лучший инспектор профилактики».

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**  
соб. корр.



## Программа в действии

**В области активно претворяется в жизнь постановление Президента «О первоочередных мерах по реализации Программы «От бедности – к благополучию» от 23 сентября 2024 года.**

В ходе изучения, проводимых по принципу «Семь возможностей и ответственность для бедных семей» решаются вопросы их обеспечения стабильным источником дохода, предоставления инструментов на основе субсидий, получения кредитов.

Руководителем 3-го сектора в махалле Корабайир Касанского района

были изучены условия быта инвалида 2-й группы Сарвигул С. В семье двое несовершеннолетних детей, а муж Сарвигул в марте выехал в Россию на заработки. Женщина зарабатывает на жизнь занимаясь дома шитьем на старой швейной машинке. Ей была предоставлена субсидия на покупку новой. Планируется также

оказать ей помощь со стройматериалами для ремонта дома на спонсорской основе.

Ответственные лица побывали также в домах Мир-олима У. в махалле Заминданного района, в семье Бахтияра Х. из махалли Куйи оброн. Принято решение трудоустроить глав семейств в строительные организации, предоставить их супругам льготные кредиты на приобретение домашнего скота.

Работа в этом направлении продолжается.

**Соб. корр.**

*Кашкадарьинская область.*



## ■ Андижанская область

# МЕДИКИ НА СТРАЖЕ ЗДОРОВЬЯ

**Сотрудники Центра санитарно-эпидемиологического надзора Медицинского отдела УВД Андижанской области занимаются контролем и надзором за соблюдением санитарно-эпидемиологических правил и норм, принимают меры по предотвращению распространения инфекционных и острых респираторных заболеваний.**

– Главное в работе – пропаганда здорового образа жизни, контроль за строгими соблюдением санитарных условий в местах дислокации подразделений УВД, – рассказывает начальник Центра подполковник Умиджон Кодиров. – Нами ведется непрерывная агитационно-пропагандистская работа среди личного состава, особенно в период сезонных заболеваний, проводятся прививки от гриппа и других сезонных болезней.

Когда сдают в эксплуатацию новое здание ОВД или жилой дом для сотрудников, мы исследуем воз-

дух в закрытых помещениях на предмет содержания вредных веществ – фенолов и формальдегидов, которые могут содержаться в строительных материалах. Проверяем, не «фонят» ли материалы, не выделяют ли токсины. В каждом подъезде произвольно выбираем несколько квартир, делаем отбор проб воздуха. Потом пробы изучаются в лаборатории. Помимо этого, измеряются физические факторы неионизированной природы – шум, освещенность. Есть мобильные приборы, которые показывают наличие паров ртути, приборы для

измерения угарного газа при пожарах.

Отлично справляются со своими служебными обязанностями старший эпидемиолог подполковник Шавкат Эгамов, санитарный врач Юлдаш-али Собиоров, помощник эпидемиолога Абдугофур Исроилов, лаборант Нозимахон Ахмаджон-кизи. Специалисты выезжают в подразделения проверяют санитарно-бытовые условия, в которых служат стражи порядка. Требуют незамедлительного устранения выявленных недостатков.

**Борис КЛЕЙМАН,**  
соб. корр.



## HAMMASI O'Z QO'LINGDA!

Bir kishi tushida shahar aylanib yurib, ko'rimsizgina bir do'konga kiribdi. U asta-sekin rastalar oralab yuribdi va shu yerda xizmat ko'rsatayotgan bir odamning yoniga yaqinlashibdi.

– Kechirasiz, bu do'konning sotuvchisi sizmi?

– Ha, to'g'ri topdingiz. Ismim Taqdir. Xo'sh, eshitaman, sizga qanday yordamim tegishi mumkin?

– Bu yerdan nimalarni xarid qilish mumkin?

– Bizda hamma narsa bor, – javob qilibdi sotuvchi.

– U holda men Salomatlik, Baxt, Mehr, Omad va Davlatni sotib olmoqchi edim!

Taqdir yuzida muloyim tabassum bilan mijozning buyurtmasini to'plash uchun uzoqlashibdi. U tez orada qo'lida mo'jaza-gina qutichani tutganicha qaytib kelibdi.

– Bori shumi?! – hayron bo'libdi xaridor.

– Ha, – xotirjam javob qaytaribdi sotuvchi. – Nahotki, xabaringiz bo'lmasa. Bizda faqat urug'lar sotiladi. Ularni yetishtirish yoki nobud qilish esa sizning qo'lingizda.



## EKIN NAVINING AHAMIYATI

Bir dehqon sifatli makkajo'xori yetishtirish bo'yicha dong taratgan ekan. Kunlardan birida undan sifat siri nimada ekanini so'rashibdi. Yer egasi esa ekish uchun hamma qo'shnilariga eng sara urug'larni tarqatishini aytibdi.

– Nega bunday qilasiz? Axir ular ham makkajo'xori ekishadi va sizga raqobatchi hisoblanadi-ku, – so'rashibdi undan.

– Bilasizmi, – tabassum qildi dehqon, – shamol mening dalalarimdag ekinlarim changini qo'shni dalalarga uchirib boradi, va aksincha. Agar qo'shnilarim ekan nav menikidan yomon bo'lsa, tez orada ekinlarim o'z sifatini yo'qotadi. Har qaysi dehqon o'z hosilini qanday parvarish qilishi esa tamoman boshqa masala.

Odamlar bilan ham xuddi shunday. Inson baxtli yashashni istasa, yaqinlariga g'amxo'rlik qilib, ularga muvaffaqiyat qozonishda ko'maklashishi lozim. Chunki atrof-dagi odamlar qanchalik yaxshi yashasa, sening ham ko'ngling tinch bo'ladi.



## BAXT BOYLIKDA EMAS

Bir donishmanddan so'rashibdi:

– «Baxt boylikda emas» degan gap qanchalik to'g'ri?

Qariya esa:

– Buni isbotlash oson, – debdi. – Negaki, pulga ko'rpa-yostiqlik sotib olish mumkin – ammo uyquni emas, yegulik olish mumkin – lekin ishtahani emas, dori olish mumkin – lekin salomatlikni emas, xizmatkorlarni sotib olish mumkin – ammo do'stlarni emas, turarjoy xarid qilish mumkin

– lekin huzurli va baxtli oilaviy hayotni emas, hatto muallimlarni pul uchun yollash mumkin – lekin bilim va aqlni emas.



## BILIM VA DONOLIK

Bir faylasuf har doim ham bilim olish, ham dono bo'lish ahamiyatli ekanini uqtirardi. Undan bu ikkisinin farqi nimada ekanini so'rashganida, mo'ysafid shunday javob berdi:

– Bilimga kitob o'qish, o'quv mashg'ulotlari va ma'ruzalarga qatnash orqali erishish mumkin. Donolik esa «o'zing», «o'zliging» deb atalmish kitobni chuqur o'rganish demak.

Bir muddatdan keyin esa qo'shimcha qildi:

– Ikkinchisi juda murakkab vazifa: chunki hayot har keyingi daqiqada senga yangi nashrlarni taqdim etadi.



## KO'ZA VA SUV

Sharqda shunday ibora bor: «Ko'zadan piyolaga faqat uning ichida bor narsani quyish mumkin». Ya'ni, agar ko'za suv bilan to'ldirilgan bo'lsa, qancha harakat qilma, undan sut quya olmasan.

Odamlar bilan ham xuddi shunday. Kimdandir o'zingiz istagan xatti-harakatlar va so'zlarni kutmang. Chunki uning qalbi umidlar-ingizni oqlay oladigan ezgulik bilan boyitilmagan bo'lishi mumkin.



## OILA BAXTI SIRI

Onam hamma vaqt mazali taomlar tayyorlardi. Faqat bir oqshom u kechki taomdan so'ng dasturxon-ga tagi kuygan shirinlikni qo'ydi. Men ishdan charchab kelgan otamning jahli chiqib, baqirishini kutdim. U esa lom-mim demadi va shirinlikni hech narsa demay yeb qo'ydi, keyin esa bizdan kunimiz qanday o'tganini so'rab, shirin suhbat qurdi.

Birozdan so'ng dasturxonni yig'ishga unnagan onam otamdan tagiga olgan pishiriq uchun uzr so'radi. Otamning «Xavotir olma, shirinlik menga juda yoqdi» degan javobini hech qachon unutmayman.

Uyquga yotish oldidan men undan nega bunday qilganini so'radim. Otam esa yelkamga qo'lini qo'yib, shunday dedi: «Bugun onangning ish kuni juda og'ir kechdi, qattiq charchadi. Shunga qaramay, uyga kelib bizga yegulik va shirinlik pishirdi. Bunday paytda keskin va qo'pol so'zlarim uning qalbini yaralashi mumkin edi. Hamma xato qiladi. Biz hamisha sevgan insonlarimizni qo'llab-quvvatlashimiz lozim. Uzoq va baxtli oilaviy munosabatlarning siri ham shunda».



## KIM UCHUNDIR SHIFOSAN



– Dunyodagi har bir inson – kimningdir muammosi yechimi, – dedi bir kun oqila buvim.

Men uning so'zlariga hayron bo'ldim.

– Hatto sen ham kim uchundir yechim bo'la olasan, – dedi u va qo'shimcha qildi, – senga ato etilgan xislat hammaga foydasi tegmasa-da, ammo kim uchundir zarur bo'lishi mumkin – sening tabassuming, muhabbating, kuch-quvvating.

Gulchehra  
AZIMOVA  
tayyorladi.


**TABARRUK QADAMJOLAR**

# ULLI PIR

YOKI YUSUF HAMADONIY ZIYORATGOHI

**Yusuf Hamadoniy ziyoratgohi Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi «Beshmergan» qishlog'ida joylashgan. Qadimdan bu yerda buyuk avliyolarning qabrlari bo'lgan. O'rta asrlarda ushbu qabrlar ustiga maqbaralar qurilgan.**



Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, muborak maskanga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, joriy yilda muqaddas qadamjo tubdan qayta qurildi va rekonstruksiya qilindi. Bu yerda ziyoratchilar uchun Xorazm me'morchilik uslubida past ayvonlar, yo'laklar, favvoralar, dam olish o'rindiqlari, avtoturargohlar bunyod etildi. Yo'laklar atrofiga voha iqlimiga mos turli manzarali daraxt ko'chatlari, gullar ekildi. Milliy hunarmandchilik ustaxonalari, savdo shoxobchalari ishga tushirildi. Qolaversa, bu ulug' zotning hayoti va faoliyatiga oid barcha ma'lumotlar jamlangan alohida ayvon tashkil etildi.



Yusuf Hamadoniy Hamadonda tug'ilgan. U avval oilasida, so'ngra Isfahon shahridagi madrasada tahsil oladi, 18 yoshida Bag'dodga keladi va 15 yil shu yerda yashaydi. Bu yerda Abu Is'hoq Sheroziydan va boshqa ko'plab allomalardan ta'lim oladi. So'ngra Isfahon, Samarqand, Buxoroga kelib, ilm o'rganishda davom etadi. Tasavvuf ilmini Abu Ali Formadiy, Abdulloh Juvayniy va Hasan Simnoniylardan o'rganadi. O'ttiz marotaba piyoda Haj ziyoratiga boradi. Yusuf Hamadoniy Buxoroda uzoq muddat yashab, Ahmad Yassaviy va Abduxoliq G'ijduvoniy va boshqa mashoyixlarga ustozlik qiladi va keyinchalik Xojagon Naqshbandiya tariqatining ayrim qoidalarini ishlab chiqadi. Buyuk alloma tasavvufga oid «Rutbat ul-hayot» («Hayot mezon»), «Kashf», «Risola dar odobi tariqat», «Risola dar axloq va munojot» kabi asarlar muallifidir. Ul zotdan ilm o'rgangan Xoja Abdulloh Barrahiy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulkholiq G'ijduvoniy va Xoja Hakim Sano'iylar buyuk shayx va tariqat namoyandalari bo'lib yetishgan. Bu insonning iste'dodi va maqomi qanchalik ulug' bo'lganini 17 nafar muridi komil avliyo darajasiga yetganidan ham bilish mumkin. Shuning uchun Yusuf Hamadoniy Pirlarning ustoz, Pirlarning piri, ulli Pir, deb ham atashgan.

**Xudoybergan JABBOROV,**  
o'z muxbirimiz.

*Xorazm viloyati.*



Amalga oshirilgan bunday ulkan bunyodkorlik ishlari natijasida Yusuf Hamadoniy ziyoratgohi qisqa muddatda yurtimizdagi yirik sayyohlik markazlaridan biriga aylandi. Ziyoratgohga kirishda ko'kka bo'y cho'zgan minora va mahobatli masjidga ko'zingiz tushadi. Xivalik ustalar tomonidan mohirona bezak berib ishlangan ushbu obidalar o'ziga xosligi bilan kishi e'tiborini tortadi. Naqshinkor eshikdan ichkariga kirar ekansiz, devordagi turfa bezaklar, qandillar kishini befarq qoldirmaydi.

Avliyolar qabrlari joylashgan maqbaraga esa ichki eshik orqali kiriladi. Ushbu maqbara beshta gumbazdan iborat bo'lib, kiraverishdagi koshinlarda hadisi shariflar bitilgan. Bu muborak qadamjoni ziyorat qilar ekansiz, o'zingizni ruhan tetik, jisman yengil his qilasis.



QO'SHQANOTLAR

## BAXTDAN MASRUR KULING, YARASHAR...

**Maftuna eshikdan kiriboq, dadasi bilan mazza qilib uzumxo'rlik qilayotgan Mumtozbegim, Muhammadali va Isroiljonga ko'zi tushib xotirjam tortdi. Ayniqsa, turmush o'rtog'i Komiljonning «Oyisi, yaxshi borib keldingmi?», degan bir og'iz mehrlil so'zidan dili yorishdi.**



– Dadasi, bugun ishdan erta qaytganingiz yaxshi bo'ldi-da, kecha Isroiljon rosa kutib-kutib uxlab qolgandi, deyayotib, qizi Mumtozbegimning g'ujumlarni bir gal o'zining, bir gal dadasining og'ziga solib, qiqir-qiqir kulishidan «Qiz bola uyning farishtasi, ota uni qanday kaltaklashga qo'li borar ekan-a?..», deya o'ziga o'zi pichirladi, Maftuna. Aslida bu og'riqli so'roq uning yuragidan bejiz otilib chiqmadi. Chunki u ayni kun shomga oqqan mahalda otasi, akalaringining tazyiq va zo'ravonligidan ham jismonan, ham ma'nan majruh bo'lishiga bir bahya qolgan bir begunoh qizni Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hududiy markaziga joylashtirib, so'ng uyiga qaytgandi-da...

Oila qo'rg'onida beg-u bekaning o'rtasidagi mehr-muhabbat, ahil-inoqlig-u sadoqat soyasida hamisha baxtiyor farzandlar ulg'ayadi. Lavhamiz qahramonlari – Samarqand viloyati IIB JXX YHXB inspektori, leytenant Komiljon Rashidov hamda Samarqand shahar bo'yicha IIOFMB 8-sonli IIB HPB XQMB inspektori, mayor Maftuna Amonova mas'uliyatli sohada xizmat qilish bilan bir qatorda, hamma havas qilsa arziydigan ana shunday baxt oshyoni sohiblaridir.

– Xizmat taqozosiga ko'ra, turli holat, kayfiyatdagi fuqarolar bilan muloqot qilamiz, – deydi Komiljon Rashidov. – Bilasiz, yo'l tasodiflarga to'la, ba'zida noxush vaziyatlar ham bo'lib turadi. Bu endi kasbi-

mizning biroz murakkab tomonlari, albatta. Ishdan horib qaytgan kezlarim farzandlarim bilan biroz o'ynasam, charchoqlarim o'z-o'zidan tarqab ketadi. Ayolim xodima bo'lgani uchunmi, uning har bir so'zida, hatto nigohlarida ham kasbimning mashaqqatlaridan asragisi kelayotganini his etaman.

Aslida oila bir-birini qadrlab, ardoqlagan insonlarning halovat, oqibat makonidir. Maftuna Amonova buni yaxshi biladi.

Xizmat taqozosi bilan er-xotin, qaynona-kelin o'rtasida oilaviy munosabatlar sovuqlashishining oldini olishga harakat qiladi. Ikki o'rtada norasida bolalar aziyat chekmasligini istaydi. O'zi ham oilasida turmush o'rtog'i Komiljondan boshlab,

qaynotasi Abduaziz aka, qaynonasi Manzura aya, onasi Shoira opa hatto ovsinining ham ko'nglini avaylaydi.

– Farzand tarbiyasi, uy yumushlari, xizmat vazifalarida qiynalmaysizmi, deya ko'pchilik so'raydi, – deydi

Maftuna Amonova. – To'g'ri, oson emas, bolalarim hali juda yosh. Ammo yoningizda qo'llab-quvvatlovchi insonlar bo'lsa, har qanday mushkul vaziyatga yechim topsa bo'ladi. Ba'zan uyga turmush o'rtog'im, bolalar hammamiz birgalashib qaytamiz. Tezda ovqatga unnasam, turmush o'rtog'imning «Oyisi, bir qaynar ovqat tayyorlayver, o'zim qarashib yuboraman», degan so'zidan ko'nglim xotirjam tortadi.

bildirmay kuzatib yurib, kutilmaganda «Sizga sovchi yuboraman», deb qo'ng'iroq qilganida hayron qolganman. Keyin bilsam, har kuni bir eshikdan kirib-chiqib, bitta binoda ishlar ekanmiz.

Oilada, xizmatda qo'shqanot qahramonlarimiz Komiljon hamda Maftunaning so'zlaridan mehr-muhabbatga to'la shirin hayotidan mamnunlik, ko'zlarida taqdiridan shukronalik balqib turibdi. O'zlari tanlagan sharafli yo'lda



U kishi tabiatan og'ir-bosiq, mehribon, oilaparvar, juda bolajon inson. Shu bilan bir qatorda, ozodalikni xush ko'radi, hamma narsa o'z o'rnida bo'lishini istaydi. Bir sirni ochay, baxtimizni ham xizmatimiz sabab topganmiz. Aniqrog'i, turmush o'rtog'im

hamisha sobitqadam bu juftlikka qarata, shoir yozganidek, «Baxtdan masrur kuling, yarashar...», degimiz keldi.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

## TUSHUNTIRISHLAR FOYDA BERMADI

**Poytaxtimizning Uchtepa tumanida xizmat olib borayotgan tuman IIOFMB JTSB saf bo'linmalari PPX 1-otryad PPX inspektorlari, kichik serjant Go'zal Saidova hamda safdor Bekzod Qo'chqorov shubhali ko'ringan shaxsni tekshirish uchun yoniga borishadi.**



O'zlarini tanishtirganidan so'ng, undan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini so'rashadi. Sarosimaga tushib qolgan fuqaro o'zining ism-sharifini biri tog'dan, biri bog'dan so'zlay boshlaydi. Shundan so'ng xodimlar uni xolislar ishtirokida tekshirib ko'rishadi. Fuqaroning yonidan 10 dona «Zardeks» nomli inson ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi psixotrop modda va tamaki qutisiga joylangan yashil rangli, o'tkir hidli giyohvandlik vositasi borligi aniqlanib, ashyoviy dalil tariqasida olingan.

Holat yuzasidan tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, IIOFMB 4-sonli IIBga topshirilgan. Ushbu shaxsga nisbatan tegishli hujjatlar rasmiylashtirilayotgan vaqtda, u o'zini javobbarlikka tortilmaslik evaziga Jinoyat qidiruv bo'linmasi tezkor vakili, mayor Abdumajid Nazarov, kichik serjant Go'zal Saidova hamda safdor Bekzod Qo'chqorovga 500 AQSH dollari

miqdoridagi pulni pora tariqasida taklif qilgan.

Xodimlar bunday qilmishi qonunga zid ekanligi, bir jinoyat ustiga ikkinchi jinoyat tomon qadam bosayotganini harchand tushuntirishga harakat qilishmasin, «Cho'kayotgan odam xasga ham yopishadi» deganlaridek u aybini yashirish uchun xodimlarga takror va takror pul taklif qilishda davom etadi.

Ushbu shaxsni to'g'ri yo'lga solishning iloji qolmaganidan so'ng, osoyishtalik posbonlari mazkur holat yuzasidan rahbariyatga bildirgi orqali axborot berishadi. O'tkazilgan maxsus tadbir davomida fuqaro Sh.J. pora berayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo'lga olinib, unga nisbatan Uchtepa tuman prokuraturasi tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

## SALOMATLIK SABOQLARI

**CHIPSNING ZARARI**

Sog'liq uchun zararli, semizlikka olib keluvchi mahsulotlar ichida kartoshka chipslari yetakchi hisoblanadi. Aynan chipslar zararli sifatleri bo'yicha kartoshka fri va koka-kolani ham ortda qoldiradi. Afsuski, bugungi kunda nafaqat bolalar, balki ayrim kattalar ham ermak o'rnida bu mahsulotni sevib iste'mol qiladi. Tarkibidagi yog', kraxmal, shakar, tuz hamda qovurish jarayoni sababli ushbu mahsulot qisqa vaqt ichida yurak-qon tomir kasalliklarini keltirib chiqaradi, ortiqcha vaznga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, tezpishar mahsulotlar, xususan kartoshka chipsi tayyorlashda tuz ko'p ishlatiladi. Ko'p miqdordagi tuz mahsulotlarning ozuqa sifatini kamaytirib, ko'proq yeyishga undaydi. Natijada esa ortiqcha vazn kelib chiqadi. Vaholanki, jismoniy sog'lom inson uchun kuniga o'rtacha 5 gramm tuz iste'moli yetarli.

Ma'lumot o'rnida aytish mumkin, 80 gramm chipsda 400–420 kaloriya mavjud, ammo bu insonni to'q tutish xususiyatiga emas,



balki ishtahasini ochadi, xolos. Uning o'rniga kaloriyaga boy, foydali taom tanovul qilib, garnir sifatida sabzavotlarni yeyish maqsadga muvofiq.

Kartoshkani yuqori darajadagi yog'da qovurish jara-

yonida oshqozon-ichak, jigar va buyraklarni zararlavdigan akrolein va akrilamid hosil bo'ladi. Organizmning muntazam ushbu moddalarni qabul qilishi oqibatida esa saraton paydo bo'lish xavfi yuqori.

**BU – QIZIQ**

Chips qanday ixtiro qilinganini bilasizmi? Kartoshka chipslari AQSH kurortlaridan birining restoranida tasodifan kashf qilingan. Ushbu restoraning maxsus taomi qovurilgan fri kartoshkasi edi. Kunlarning birida ushbu oromgohga dam olish uchun kelgan temir yo'l magnati kartoshka bo'laklarining qalinligi bois yaxshi qovurilmaganligidan shikoyat qiladi va taomni qaytarib yuboradi. Tabi nozik mijozning bu qiligi bosh oshpazning jahlini chiqaradi. Shuning uchun unga qasdma-qasd kartoshkani nihoyatda yupqa qilib kesib, keyin yoqqa tashlaydi. Natijada daftar varag'iday yupqa bo'laklar hosil bo'ladi. Bosh oshpaz xo'randaning ustidan kulganday qilib ushbu kartoshka bo'laklarini unga tortadi. Nozikta'bli xo'randaga esa bu taom juda yoqib tushadi. Mana shu voqea sabab kartoshka chipslari ixtiro qilib, mazkur restoraning maxsus taomiga aylandi.

**QUVVAT EMAS, KULFAT MANBAYI!**

Bugungi kunda ko'pchilik sevib ichadigan energetik ichimliklar ilk bor 1960-yilda Yaponiyada dori vositasi sifatida yaratilgan. Keyinchalik Yevropa va AQSHni «zabt etgach», biznesmenlar bu mahsulotni ommalashtirish uchun tarkibiga bir qancha kimyoviy moddalarni qo'shishgan.



Hozir dunyoning qator davlatlarida bunday mahsulotlar sotuviga taqiqlar o'rnatilgan. Mamlakatimizda ham bu borada ma'lum qonuniy cheklovlar amalda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi mutaxassislari energetik ichimliklarga «Quvvat emas, kulfat manbai!» deb ta'rif berdi va ularni iste'mol qilayotganlarni irodasi sust, deb atadi.

Xo'sh, energetik ichimliklar nimasi bilan xavfli? Vaqtincha tetiklashishning oqibati nimalarga olib keladi? Shifokorlar nega bu mahsulotdan tiyilishni tavsiya qiladi?

– Energetik ichimliklar me'yordan ortiq va surun-

kali iste'mol qilinsa, bosh miya, markaziy asab tizimi, bo'g'imlar va boshqa a'zolariga jiddiy ziyon yetadi, – deydi IIV Markaziy poliklinkasi Terapiya bo'limi shaxobcha oilaviy shifokori Dildora Istamova. – Tarkibidagi kofein psixostimulyator modda bo'lib, kishiga vaqtinchalik tetiklik hissini bag'ishlab, charchoqni aritishi, aqliy faoliyatni kuchaytirishi mumkin. Ammo ma'lum vaqtdan so'ng, masalan, oradan 1–1,5 soat o'tgach, inson organizmida horg'inlik battar kuchayadi, bosh og'rig'i paydo bo'ladi va nafaqat aqliy, balki jismoniy faoliyat ham susayadi.

Shuningdek, energetik ichimliklarni tez-tez iste'mol qiluvchilarning bo'g'imlarida keyinchalik og'riqlar paydo bo'la boshlaydi va ma'lum bir asoratlarga olib keladi.

Energetik ichimliklar ichish 18 yoshga to'lmagan bolalar va o'smirlar, homilador va emizuvchi ayollar, yurak-qon tomir xastalıklariga chalingan hamda qandli diabeti bor bemorlarga mutlaqo tavsiya etilmaydi.

Afsuski, mutaxassis shifokorlarning tavsiyalarini, tushuntirishlarini inobatga olmay, nafs hakalak otib energetik ichimliklarni huzurlanib ichayotganlar orasida o'smir-yoshlarga ham, homilador ayollarga ham ko'zimiz tushadi.

Dunyo bo'ylab yangidan yangi kasalliklar aniqlanayotgan, stresslar oqibatida inson hayotini izdan chiqaruvchi noxush holatlar sodir bo'layotgan bir paytda sog'lig'ingizga e'tiborli bo'lishingizni istab qolamiz.

**Sahifa materiallarini Adolat FAYZIYEVA tayyorladi.**

**ОСЕНЬ – СЕЗОН РЕСПИРАТОРНЫХ ВИРУСНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ**

Понижение температуры, холодные ветра, перепады атмосферного давления, участвовавшие дожди – все это может привести к обострению респираторных инфекций. Ослабление иммунитета в этот период ведет к частоте простудных заболеваний.

Первая угроза здоровью в холодное время года – это переохлаждение. Температура на улице снижается, особенно по утрам и в вечернее время. Поначалу мы не замечаем, но затем появляются характерные симптомы: насморк, боль в горле, слабость, ломота в костях. Если при этом не наблюдается повышенной температуры и кашля – скорее всего у вас ОРЗ.

**Как защититься?**

Способы профилактики ОРЗ также достаточно просты:

- соблюдайте правила личной гигиены;
- порадуите себя и свой иммунитет полноценным питанием с необходимым количеством витаминов;
- при первом похолодании смените гардероб на теплую одежду, закрывающую от ветра;
- поддерживайте оптимальную влажность воздуха дома и на работе, устраивайте регулярные проветривания;
- избегайте сквозняков, переохлаждений, резких перепадов температуры.

**Как лечить?**

Болезни ОРЗ отличаются более легким протеканием. Зачастую заболевание можно победить натуральными средствами: горячий чай с малиной или имбирем, с медом и лимоном. Нельзя забывать и про постельный режим.

Однако, если за 48 часов лечения народными средствами значимого улучшения не наступает – необходимо обратиться к врачу. Иногда под маской ОРЗ прячутся более серьезные болезни.



Ўзбекистон Республикаси ИИБ ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаменти раҳбарияти ва шахсий таркиби Бешинчи минтақавий ҳудуд 36-сон манзил-колониеси бошлиғи, подполковник Улуғбек Алиевга отаси

**Рустам АЛИЕВ**нинг

вафот этганлиги муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

Самарқанд вилояти ИИБ раҳбарияти, шахсий таркиби ва Фахрийлар кенгаши Самарқанд шаҳар 2-сон ИИБ бошлиғи, подполковник Файрат Ҳалимовга отаси истафодаги майор

**Талъат ҲАЛИМОВ**нинг

вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

Совет ветеранов МВД Республики Узбекистан выражает искренние соболезнования подполковнику в отставке Татарникову Михаилу Дмитриевичу в связи с кончиной его брата

**ТАТАРНИКОВА**

**Олега Дмитриевича.**

Встреча ветеранов



## НЕЗАБЫВАЕМЫЕ ВПЕЧАТЛЕНИЯ

**В последние годы крепнет сотрудничество между Советами ветеранов УВД Ферганской и Наманганской областей. С участием представителей двух регионов проводятся духовно-просветительские мероприятия, организуются поездки по историческим местам, походы в музеи.**

В преддверии 25 октября – Дня сотрудников органов внутренних дел 50 ветеранов из Намангана побывали в городе Коканде.

Гости были тепло встречены членами областного Совета ветеранов. Заслуженные работники сферы побывали в резиденции Худоярхана, осмотрели экспонаты, архивные фотографии, повествующие об истории Кокандского ханства, редкие экземпляры рукописей. Также посетили ряд объектов, представляющих интерес для туристов. Беседа за пиалой чая, организованная в конце пребывания, придала встрече особую атмосферу, крепче связав узы сотрудничества.

– Знакомство с Кокан-дом оставило неизгладимое впечатление, – говорит председатель Совета ветеранов Наманганского областного УВД полковник в отставке Олимжон Долимов. – Беседа с коллегами воскресила в памяти былые годы. За подобную заботу выражаем благодарность руководству областного УВД и хотим заверить, что приложим все силы для воспитания молодых кадров в духе патриотизма и преданности профессии.



Соб. корр.

Хроники минувших лет



1 июня 1987 г.  
Ташкентская область.

**На снимке:** оперуполномоченный отдела уголовного розыска УВД Ташкентской области майор Абдурахман Тешабаев во время операции по обнаружению плантации наркотиков держит связь с вертолетом.

## MUNAJJIMLAR BASHORATI

(21-oktabrdan 27-oktabrgacha)



**Qo'y.** Ayni palla salomatlikka e'tibor qaratish uchun kerakli va qulay davr. Imkoniyatlaringizdan ortiq darajada harakat qilmang, yuzaga kelgan muammolarni yuragingizga yaqin olmang. Payshanba kuniga borib vaziyat nafaqat barqarorlashadi, balki yaxshi tarafga o'zgaradi.



**Buzoq.** Ushbu hafta o'zingizni tutib, og'irroq bo'lishga harakat qiling. Bu davr yangi rejalar tuzish va ularni amalga oshirish yo'llarini izlash uchun juda qulay. Faqat hozircha o'z maqsadlaringizni hech kimga oshkor qilmay, sir saqlab turganingiz ma'qul.



**Egizaklar.** Kelayotgan haftada sizdan tirish-qoqlik va serg'ayratlik talab etiladi. Har bir bajarayotgan ishingiz uchun yelkangizga katta mas'uliyat yuklanganini zinhor unutmang. Bu davrda ishga oid kelishuvlar omadli bo'lib, yangi tanishuvlar esa uzoq muddatli va mustahkam bo'ladi.



**Qisqichbaqa.** Bu hafta kelgusi hayot poydevorini mustahkamlash uchun qulay davr. Taqdir sizga yashil chiroqni ko'rsatmoqda, imkoniyatni qo'ldan boy bermang. Biroq yangi loyihani amalga oshirish yoki biron taklifni qabul qilishdan oldin chuqur mulohaza yuriting.



**Arslon.** Haftani ko'tarinki kayfiyat bilan boshlaysiz. Ammo ishga sho'ng'ib ketish hayotningizning qolgan bo'g'iniga ta'sir ko'rsatib, ularga vaqtingiz yetmay qolishi mumkin. Agar hayotda o'z juftingizni topmagan bo'lsangiz, bu davrdagi yangi tanishuvlardan ehtiyot bo'ling.



**Parizod.** Hafta davomida atrofdagi odamlar, hamkasblar, shuningdek rahbariyatdan e'tirof va iliq fikrlar qabul qilasiz. Muzokaralar va foydali shartnomalarni imzolash uchun payshanba va juma kunlari maqbuldir. Munosabatlar doirasi barqarorlikni va'da qilmoqda. Ish joyida mehnat-sevarligingiz munosib rag'batlantiriladi.



**Tarozi.** Ushbu haftaning boshida kuchli aqliy zo'riqishni talab qilmaydigan ishlar bilan band bo'lasiz. Yaqinlar bilan kelishmovchiliklar va hamkasblar orasidagi norozilik kayfiyatining buzilishiga olib keladi. Imkon qadar iltifotli va sabrli bo'ling, shunda hammasi o'z iziga tushib ketadi.



**Chayon.** Bu davrda salomatligingiz yomonlashishi yoki keraksiz mojarolar yuzaga kelishi mumkin. Odamlar bilan munosabatda sabrli bo'ling. Haftaning ikkinchi yarmida o'tgan kunlardagi salbiy onlarni unutishga yordam beradigan yoqimli va kutilmagan yangilik olasiz.



**O'qotar.** Hafta boshidagi faol sa'y-harakatlaringiz kutilgan natijalarni beradi. His-tuyg'ularingizni nazorat ostida ushlang, aks holda keyin afsus qilasiz. Payshanba va juma kunlari asab-buzarliklar kuzatilishi mumkin. Bu davrda og'ir, vazmin va sabrli bo'lish tavsiya etiladi.



**Tog' echkisi.** Xizmat joyidagi vaziyat keskin tus olib, hafta biroz og'ir kechadi. Siz bilan raqobat qiladiganlar asablargingizni qitiqlab ko'rishi mumkin. Biroq haftaning ikkinchi yarmida barcha muammolar o'z-o'zidan hal bo'lib, siz zavq va g'ayrat bilan o'z yumushlaringizga kirishasiz.



**Qovg'a.** Bu haftada amalga oshirilgan loyiha va tashabbuslar o'z qadriga ega bo'ladi. Seshanba va payshanba kunlari foydali jamoat ishlari uchun maqbul davr. Dam olish kunlari sevimli mashg'ulotingiz bilan shug'ullaning yoki tabiat qo'yniga sayrga chiqing.



**Baliq.** Katta tajribaga ega odamlarning maslahatiga jiddiy e'tibor qaring. Hafta davomida barcha ishlarni to'g'ri taqsimlashga harakat qiling. Yaqinlaringizdan biri sizga pand berib qo'yishi mumkin. Dam olish kunlari hushyor va kuzatuvchan bo'lish talab etiladi.

# BILIMDONLAR HAMISHA G'OLIB

Buxoro viloyatida ichki ishlar organlari Ekspert-kriminalistika bo'linmalari o'rtasida «Eng namunali ekspert-kriminalistika jamoasi» va «Eng yaxshi ekspert-kriminalist» ko'rik-tanloving respublika bosqichi 10–11-oktabr kunlari bo'lib o'tdi.

Unda hududiy saralash bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan 16 ta jamoa qatnashdi.

Ishtirokchilarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikmasi bo'yicha suhbat va yozma ish bo'yicha sinovlar qabul qilinib, shaxsiy tarkibning kasbiy bilimlariga, zamonaviy texnik uskunalaridan foydalanish qoidalarini puxta o'zlashtirganiga alohida e'tibor qaratildi.

Murosasiz bellashuvlar yakuniga ko'ra **birinchi o'rinni** «Eng yaxshi ekspert-kriminalist» nominatsiyasi bo'yicha Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, kapitan Tohirjon Ibrohimov egalladi. **Ikkinchi o'rin** Sirdaryo viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazi katta eksperti, mayor Zafar Arziqulov va Termiz shahar IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, katta leytenant Islom Norbekovlarga nasib etdi. Samarqand viloyati IIB Ekspert-kriminalistika



Eng yaxshi ekspert-kriminalist, Marg'ilon shahar IIB EKG katta eksperti, kapitan Tohirjon Ibrohimov.



IIV Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar kafedrasida – Eng namunali ekspert-kriminalistika jamoasi.

markazi bosh eksperti, podpolkovnik Azamat Abbasov, Buxoro viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazi bosh eksperti, podpolkovnik Jahongir Sharipov hamda Andijon viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazi katta eksperti, kapitan Mirjalol Madaminovlar esa **uchinchi o'rin** sohibi bo'lishdi.

Tadbirda IIV Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar kafedrasida jamoasi **birinchi o'rinni** egallab, «Eng namunali ekspert-kriminalistika jamoasi» deb topildi. Toshkent viloyati IIBB Ekspert-kriminalistika markazi jamoasi **ikkinchi**, Xorazm viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazi jamoasi esa **uchinchi o'rin**larni zabt etishdi.

G'oliblikni qo'lga kiritgan jamoa va ekspertlarga mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

**Bobir FATULLAYEV,**  
podpolkovnik.

## «ZAKOVAT» SAVOLLARI

XIX asr o'rtalarida keng tarqalgan sport o'yinlari: golf bilan kriketning qorishuvi natijasida yana bir yangi o'yin vujudga kelgan. **Bu o'yinning nomi nima?**

\* \* \*

U havoda sekundiga 335 metr tezlikda harakatlanadi. Uning harakati xuddi suvga tushgan toshdan hosil bo'lgan to'lqinlarga o'xshaydi. **U nima?**

Ushbu savollarning javobini gazeta sahifalaridan topasiz.

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik  
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Gulnoza TURG'UNBOYEVA

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
470010860262877031101179001  
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-  
yozma va suratlar egasiga  
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-  
ganda manba ko'rsatilishi shart.  
Gazeta tahririyat kompyuter  
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxonada manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olingan.

Buyurtma №3425.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 45809 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.



# ZAKOVAT